

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
TEXNIKA UNIVERSITETI**

**MA'NAVIYAT - MILLATNI TARAQQIYOTGA  
YETAKLOVCHI, DAVLATNING QUDRATINI  
OSHIRUVCHI MUHIM OMIL**

*Uslubiy qo'llanma*

**Toshkent-2017**

**UDK 378:37**

**BBK 74.58**

”Ma’naviyat – millatni taraqqiyotga yetaklovchi, davlatning qudratini oshiruvchi muhim omil”. Uslubiy qo’llanma. Saidaliyeva M.R., Sultonova M. – Toshkent, ToshDTU, 2017. 64 b.

Mazkur uslubiy qo’llanmada ma’naviyat va ma’rifatni targ‘ib qilish har bir ziyoli mutaxassis va tarbiyachining vijdoniy burchi va ishi ekanligi, ma’rifat-chining fidoyi bo‘lmog‘i kerakligi, erkin fikrga ega bo‘lgan, mustaqil, o‘z ishini o‘zi boshqara oladigan, zamonning ilg‘or talablariga javob beradigan vatanparvar, g‘ayrat-shijoatli, mard, insof-diyonatli yoshlarni tarbiyalash hozirgi kunda barchamizning oldimizda turgan asosiy vazifalardan biri ekanligi haqida keng va atroflicha tushunchalar berilgan. Yoshlarga o‘z huquqlarini bilishlari va “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahriri haqida keng va atroflicha tushunchalar berilgan.

*Islam Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetining ilmiy-uslubiy  
kengashi qaroriga muvofiq chop etildi*

Taqrizchilar:      Rahmonov TDIU dotsenti  
                          Isayeva M.R. p.f.n., ToshDTU dotsenti

## Kirish

Yoshlarni tarbiyalash, o‘qitish, ularga ta’lim berish, o‘z fikrlarini erkin bayon etish xususiyatlarini shakllantirish, milliy mafkuraning targ‘ibot va tashviqoti ma’naviy-ma’rifiy ishlar oldida turgan muhim vazifa ekanligi, yurtimiz buyuk kelajagini ta’minlashda yoshlarimizni ma’naviy-ma’rifiy jihatdan har tomonlama tarbiyalash, milliy istiqlol g‘oyasi, mafkurasini shakllantirish va qalblariga singdirish davrimizning eng dolzarb masalalaridan sanalishi, mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunning yangi tahririni qabul qilish hamda shu orqali sohada qonuniylikni ta’minlashning eng samarali mexanizmlarini yaratish, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning qonunlarga, sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlar ehtiyojiga mos bo‘lishini ta’minlash zarurligi har tomonlama asoslab berilgan.

Yangi tahrirdagi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonun oldingisidan hajmi va mazmuni jihatidan ham tubdan farq qilishi, unga nafaqat yangi moddalar kiritilgan, balki bugungi kun talablari asosida ko‘plab qoidalar bilan to‘ldirilganligi va boyitilganligi, ayni chog‘da normativ-huquqiy hujjatlar loyihibarini ishlab chiqish jarayoniga bo‘lgan talab kuchaytirilganligi haqida keng va atroflicha tushunchalar berilgan hamda yoshlarni komil inson etib tarbiyalash masalalari yoritilgan. Tarbiyaning rang-barang shakllari, uslub va vositalari bo‘yicha talaba-yoshlarning qalbi va ongiga yetib boradigan, tarbiya jarayonida yoshlar ma’naviy dunyoqarashini, ma’naviy-axloqiy tuyg‘ularini shakllantirish-dagi imkoniyatlardan foydalanish usullari ko‘rsatilgan. Talaba-yoshlarning huquqiy ongini yuksaltirish yo‘li bilan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunlariga hurmat hissini tarbiyalash ayni paytda o‘zining fuqarolik huquqi va burchini chuqur anglagan holda yashashi haqida atroflicha tushuncha berilib, o‘zbek xalqining qutlug‘ merosidan yoshlarimizning muntazam va to‘laqonli bahramand bo‘lishiga, ularning mana shunday ma’naviyat muhitida kamol topishiga, talaba-yoshlarning komil inson bo‘lib buyuk kelajak sari intilishlariga yo‘llanma berilgan va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sishning nazariy tamoyillari ochib berilgan. Uslubiy qo‘llanma soha mutaxassislari, tadqiqotchilar, o‘qituvchilar va keng jamoa ommasiga mo‘ljallangan.

## **Ma’naviyatda milliylik va umuminsoniylik. Milliy-ma’naviy qadriyatlar tushunchasi**

Qadriyat tushunchasi juda keng tushuncha. Uning bir qismi ma’naviy qadriyatlardir. Milliy-ma’naviy qadriyatlar «milliylik», «ma’naviyat» va «qadriyat» tushunchalari kesishgan nuqtada jamlangan ijtimoiy hodisalarini o‘z ichiga oladi. «Milliy-ma’naviy qadriyatlar» tushunchasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin: *Muayyan millat, shu millat vakillari uchun zarur va ahamiyatli, aziz va ardoqli bo‘lgan, uning manfaati va maqsadlariga xizmat qiladigan ma’naviy boyliklar, amallar va tamoyillar, g‘oyalalar va me’yorlar milliy-ma’naviy qadriyatlardir.* Har bir xalqning o‘zi uchun e’zozli, qimmatli bo‘lgan ma’naviy boyliklari bo‘ladi. Bular asrlar davomida avloddan-avlodga o‘tib kelgan, hozirgi kunda ham o‘zining ahamiyati va qadrini yo‘qotmagan, shu xalqning *iftixor manbaiga* aylangan durdonalardir. Masalan, qirg‘iz xalqi «Manas» dostoni bilan, misrliklar qadimiy piramidalar, fransuzlar Parijdagi Luvr saroyi, o‘zbeklar Samarcand-u Buxoro va Xiva bilan haqli ravishda faxrlanadilar. Millat va elatlarning o‘ziga xos tarixiy merosi, san’ati va adabiyoti bilan bir qatorda ularning urf-odat va marosimlari, madaniy munosabat va axloqiy fazilatlari ham ma’naviy qadriyatlar tizimiga kiradi. Bular xalqning o‘ziga xosligini saqlab qolishda, yosh avlodni tarbiyalashda, shaxsning ijtimoiylashuvida muhim rol o‘ynaydi. Milliy-ma’naviy qadriyatlarda xalqning dunyo-qarashi va hayotga munosabati, ichki tabiatni va turmush tarzi o‘z ifodasini topadi. Bularda millatning ruhiy olami va tafakkur tarzi, orzu-umidlari va ideallari, vijdoni va or-nomusi aks etadi. Ma’naviyat jamiyat taraqqiyoti, millat kamoloti va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi, chunki ma’naviyat rivojlangandagina jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik vujudga keladi hamda mamlakat va millat taraqqiy etadi. Ma’naviyat ko‘proq inson qalbiga, botiniy tomoniga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Shu ma’noda ma’naviyat inson qalbidagi ilohiy bir nur sanaladiki, bu ilohiy nur hech bir jonzotda yo‘q. Ma’naviyat shunday sehrli tilsimki, uni tugal yechishga bashar qudrati yetmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ma’naviyat insonning ruhiyatini, uning o‘z-o‘zini anglashi, didi, farosati,adolat bilan razilikni, yaxshilik bilan yomonlikni, go‘zallik bilan xunuklikni, vazminlik bilan johillikni ajrata bilish qobiliyatini, aql-zakovatini, yuksak maqsad va g‘oyalarni

qo‘ya bilish, ularni amalga oshirish uchun harakat qilish va intilish salohiyatidir, – deb ta’rif berish o‘rinli deb hisoblaymiz.

Ma’naviyat inson tug‘ilishida ona suti, uning allasi, mehri, ajdodlar qadriyatlari ta’siri ostida shakllanadi. Uning shakllanishida oiladagi muhit, jamiyatdagi hamjihatlik, davlat olib boradigan siyosatdagi adolatparvarlik va insonparvarlikning qay darajada amal qilinishi asosiy o‘rinni egallaydi.

Ma’naviyatning moddiy kuchga aylanishi har bir insonning xatti-harakatlarida, o‘z oilasi, millati va Vataniga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Yuqorida aytganimizdek, uning shakllanishida ota-oni, inson yashayotgan atrof-muhit, milliy, diniy qadriyatlari, jamiyatdagi insonparvarlik va adolatparvarlik siyosati muhim ahamiyatga ega.

Odam ota-onadan tug‘iladi, ammo uning axloqi, odob borasidagi fazilatlari, ya’ni ma’naviy dunyosi jamiyatda, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy munosabatlar ta’sirida shakllanadi. Insonning ma’naviy olami, asosan, ijtimoiy taraqqiyotning mahsuli bo‘lsa ham, u o‘z navbatida, jamiyat taraqqiyotiga nihoyatda katta ta’sir ko‘rsatadi, uni belgilab beradigan omillardan biri sanaladi. Odamlarda axloq, odob, iymon, vijdon, halollik, mehnatsevarlik, baynalmilalchilik, insonparvarlik e’tiqodi, vatanparvarlik, milliy va insoniy g‘urur tuyg‘usi, burch va mas’uliyatni his qilishi qanchalik kuchli, yuqori bo‘lsa, jamiyat taraqqiyotining zaminlari ham kengayishiga, tinchlik, osoyishtalik, hamjihatlik barqaror bo‘lishiga olib keladi.

Jamiyat taraqqiyotining har bir yangi bosqichi kishilarning ma’naviy kamolotida ham yangi davrning yuzaga kelishidir. Ma’naviyatsiz adolatli, yuksalish imkoniyatiga ega bo‘lgan jamiyat bo‘lma-ganidek, jamiyatsiz ma’naviyat ham rivojlanishi mumkin emas.

Jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalarida mavjud bo‘lgan muammolarini ma’naviyatni rivojlantirish, unga tayanish orqali hal etish mumkin.

Ma’naviyat millatni taraqqiyotga yetaklovchi, davlatning qudratini oshiruvchi muhim omil sanaladi. Chunki qayerda, qaysi mamlakatda ma’naviyat yuksak darajada bo‘lsa, o‘sha joyda, o‘sha mamlakatda johillik, hasadgo‘ylik, beparvolik, xudbinlik, yalqovlik, manmanlik, tekinxo‘rlik, g‘iybat qilishlik, ko‘rolmaslik, yovuzlik, tuhmat qilish kabi salbiy illatlar, ma’naviyatsizlik ko‘rinishlariga o‘rin qolmaydi.

Ma’naviyat har doim ma’rifat bilan uyg‘un holatda rivojlanib boradi. Ma’rifat “bilish”, “bilim”, “tanish” va “ma’lumot” degan ma’noni anglatadi.

Insoniyatning bir jamiyatdan ikkinchi jamiyatga, bir tarixiy davrdan ikkinchi bir yangi tarixiy davrga o‘tishi ma’rifatparvarlikdan boshlanadi. Zamonaning, millatning eng yetuk, ongli, oq-qorani tanigan, fidoyi, elim, yurtim deb yashovchi, uzoqni ko‘zlovchi ma’naviyatli kishilari ma’rifatparvarlik bilan shug‘ullanganlar. Chunki ma’rifat ma’naviy qaramlik, qo‘rquv va hadikni bartaraf etadi, insonga beqiyos ilohiy qudrat, mislsiz salohiyat baxsh etadi. Mamlakat, millatning ozodligi – uning ma’rifiy uyg‘oqligidadir. Odamzod naslining ulug‘ligi esa bilimdan.

Bilingki, bilim va ma’naviyat o‘ylab ko‘rilsa, misoli bir jilov.

U insonlarni barcha yomon, yaramas ishlardan, ya’ni ma’naviyatsizliklardan tiyib turadi. Shu tufayli ota-bobolarimiz, avlod-ajdodlarimiz doimo ma’rifat va ma’naviyatga intilib yashaganlar. Ular ma’naviyat va ma’rifat chiroqlarini mash’ala singari yoqqanlar. Yuksak ma’naviyat va ma’rifat tufayli Turon zamin yer yuzida shuhrat qozongan.

Ma’naviyatli odamlarning hammasi ham doimo ma’rifatli, shu bilan birga ma’rifatli, ilmli kishilarning ham hammasi yuksak ma’naviyatli bo‘lavermaganlar. Shunday kishilarga qarata haqli ravishda olim bo‘libti-yu, ammo odam bo‘lmapti, iborasi ishlatiladi. Boshqacha aytganda, insonlar borki, olim emas. Bo‘lmasa bo‘lmas, ammo ma’naviyati yuksak. Olimlar borki, inson zotiga loyiq emas. Bunisi og‘ir. Ulardan elga, yurtga foyda yo‘q. Shuning uchun xalqimiz «Olim bo‘lma, odam bo‘l» iborasini ishlatib kelgan. Bu ma’naviyat va ma’rifat bir-birini inkor etadi degani emas. Aksincha, ma’naviyat va ma’rifat bir-biriga chambarchas bog‘liqdir. Ular bir-birini quvvatlab, o‘zaro ta’sirlanib rivojlanib boradi.

Zaminimizda kamol topgan, el-yurtga tanilgan buyuk zotlar, komil insonlar o‘zlarida ma’naviyat va ma’rifatni yuksak darajada mujassam etgan allomalar bo‘lganlar. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, hozirgi davrda milliy kamolot yo‘li, komil insonni, sog‘lom avlodni voyaga yetkazish yo‘li mana shu yo‘l, bundan boshqa yo‘l yo‘q. Ma’naviyat va ma’rifat xalqimizning, millatimizning kelajagi uchun suv va havoday zarur. Ma’naviy va ma’rifiy tarbiyani birga olib borish taraqqiyot taqozosi. Ularni boshqa-boshqa olib borib bo‘lmaydi. Ma’naviyat ham o‘zining bir qator kategoriyalariga, tushunchalariga va rivojlanish qonuniyatlariga egadir. Uning tushunchalariga shaxsning o‘z-o‘zini anglashi, bilimdonlik, qalbi tozalik, saxiylik, samimiylilik, xayrixohlik, iymonlilik, halollik, e’tiqodlilik, diyonatlilik, poklik, mehr-shafqatlilik, vijdonlilik, rostgo‘ylik, adolatparvarlik, ota-onaga hurmat,

oilaga sadoqat, vafodorlik, to‘g‘rilik va boshqalar kiradi. Millatning vakili sifatida milliy o‘z-o‘zini anglash, milliy g‘urur, millatparvarlik, vatanparvarlik, millat taqdiriga nisbatan mas’uliyatni, milliy manfaat ustuvorligini his etish, milliy til, milliy tarix, adabiyot, san’at, urfodatlar, an’analar, qadriyatlar, davlat tizimiga hurmat, qonunlarga hurmat va itoatkorlik, vazminlik, o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lish, mamlakat ichki va tashqi faoliyatidan xabardor bo‘lish va uni qo‘llab-quvvatlash, mamlakatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy hayotida faollik va boshqalar kiradi. Ma’naviyatning yuqorida keltirilgan tushunchalaridan ko‘rinib turibdiki, ma’naviyat har bir insonning millat, jamiyat, davlat hayoti, insonlararo bo‘ladigan va ijtimoiy hayotga nisbatan bo‘ladigan munosabatlarini o‘z ichiga oladi.

Yuqoridagilardan tashqari, ma’naviyatning boshqa bir qator tushunchalari ham bor. Bu yerda gap ularning hammasi ustida to‘xtash haqida emas, balki ma’naviyatning ko‘p qirrali, keng qamrovli ekanligi, u inson ongi, ruhiyati, ichki dunyosining salohiyati, xattiharakatlari kabi bir qator masalalarni o‘z ichiga olishini tushunib yetish haqida bormoqda. Ma’naviyatni chuqur tahlil qilishda ana shu ko‘rsatilgan tushunchalarni uyg‘un holda tahlil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ma’naviyat rivojlanishi ham ma’lum qonuniyatlarga tayanadi. Garchand bunday qonuniyatlar bir necha yo‘nalish va jarayonlarni o‘z ichiga olsa ham, ularni yirik guruhlarga ajratish mumkin. Birinchi guruhgaga shaxs, millat yoki jamiyatning ichki salohiyati bilan bog‘liq bo‘lgan qonuniyatlar kiradi. Ya’ni shaxs, millat yoki jamiyatning ichki salohiyati mustahkam, zaminlari chuqur bo‘lishi ma’naviyat rivojlanishining asosini tashkil qiladi. Agar ichki salohiyat nochor bo‘lsa, shaxs barkamollik darajasiga, millatning bir butunligini saqlashga va ayni paytda jamiyatning yuksak taraqqiyot pog‘onasiga erishishiga salbiy ta’sir qiladi. Yana ham aniqroq qilib aytildigan bo‘lsa, ichki salohiyat asosiy tayanch va obyektiv zaruriyatdir. Ichki salohiyatning darajalari esa obyektiv va subyektiv omillar bilan bog‘liq bo‘ladi. Uning rivojlanishi ularning uyg‘un holatda bo‘lishini taqozo etadi. Ichki salohiyatning mustahkam bo‘lishi, tarixiy taraqqiyot bosqichi yoki shaxs shakllanish jarayoni qanday murakkab bo‘lmisin, baribir zaruriy sharoitlar yuzaga kelgan paytda shaxs ma’naviy kamolotini va millatning yuksalishini ta’minlashga xizmat qilaveradi. Ikkinchi guruh qonuniyatlariga shaxslar va millatlarning o‘zaro munosabatlari jarayonida sodir bo‘ladigan «o‘zaro ta’sir» va «o‘zaro boyitish» orqali namoyon bo‘ladigan jarayonlar kiradi. Ya’ni

shaxs ma'naviy kamoloti onadan tug'ilishi bilan yuzaga kelmaydi. Xuddi shuningdek, millat ham tarixiy taraqqiyotning ma'lum bosqichlarida boshqa xalqlar, millatlar bilan hamkorlik natijasida yuzaga keladi. Hech qachon shaxs, inson o'zgalarsiz yashay olmaganidek, millat ham boshqa millatlar, xalqlar bilan aloqa qilmasdan taraqqiy qila olmaydi, boz ustiga bugungi kunda dunyoda «sof» millat borligiga hech kim guvohlik yoki kafolat bera olmaydi. Jamiyat ham xuddi ana shu qonuniyat asosida rivojlanadi. Ma'naviyat ana shu o'zaro munosabatlar va «ta'sirlar» asosida rivojlanib boradi. Bu jarayonda bir tomon ikkinchisiga nimanidir «beradi» va nimanidir «qabul» qiladi. Shunday qilib, ma'naviyat rivojlanishidagi «ta'sir» va «aks ta'sir» qonuniyati mavjud bo'lib, u ma'naviyatning rivojlanib borishini ta'minlashga xizmat qiladi. Yuqorida ma'naviyatning jamiyat, shaxs va millat hayotidagi muhim o'rni haqida fikr yuritildi. Ammo uni real hayotga qanchalik tatbiq qilish yo qilmaslik davlat olib borayotgan siyosat bilan bog'liq. Shaxs va millat shakllanishi yoki jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida ma'naviyatning roli va ahamiyatiga e'tibor berib kelingan. 1998-yilning 24-iyulida Vazirlar Mahkamasi «Ma'naviy-ma'rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» qaror qabul qildi. Yuqorida qayd etganimizdek, Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasida ham jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirish, islohotlarni amalga oshirishda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi ekanligi yana bir bor qayd etildi. Bu sohadagi muhim vazifalar, oldimizda turgan muammolar va ularni kechiktirmay hal etish zarurligiga xalqimiz e'tibori qaratildi.

## **Ma'naviyatda milliylik va umuminsoniylik**

Milliy ma'naviyat – muayyan elat, millatga, uning ajdodlariga xos bo'lgan g'oyat qimmatli ma'naviy boylikdir. Mintaqaviy (regional) ma'naviyat – muayyan jug'rofiy mintaqa millatlariga xos, ular uchun umumiyl bo'lgan ma'naviy boylikdir. Masalan, O'rta Osiyo xalqlarining ma'naviyatidagi yoki yanada kengroq doirada oladigan bo'lsak, Sharq va G'arb ma'naviyatidagi mushtaraklik, o'xshashlikni olishimiz mumkin. Abdulla Avloniy va boshqa ma'rifikatparvar fidoyilar XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Turkistonda hukmron bo'lgan ma'naviy inqiroz haqida gapirib, bu og'ir vaziyatdan ta'lim-tarbiya ishlarini yaxshilash, axloqni yuksaltirish orqaligina chiqish mumkinligini qayd qilgan edilar. "Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo

saodat – yo falokat masalasidir”, – degan edi Abdulla Avloniy. Milliy tarbiyaning yana bir yo‘nalishi ota-oni, qarindosh-urug‘larning hurmatini joyiga qo‘yish, oilaning muqaddasligi tuyg‘ularining barkamol bo‘lishiga erishish, o‘zaro munosabatlarda yonma-yon yashayotgan o‘zga millatlar va elatlar vakillarining manfaatlarini hisobga olish kabilar tashkil etadi. Umuminsoniy ma’naviyat o‘z ijobiy ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydi. Oltin zanglamas, quyosh qoraymas deganlaridek, umuminsoniy ma’naviyat ham doim qadimiylari va navqiron bo‘lib turaveradi. Ular umumbashariy ma’naviyat deb ham yuritiladi. Inson ozodligi, salomatligi, har bir shaxsning yashash, bilim olish, keksayganda ijtimoiy himoyalananish imkoniyatlari va u haqda g‘amxo‘rlik qilish kabi ma’naviy mas’uliyat o‘z ahamiyatini doim saqlab qolaveradi. Adolat, tenglik, ahil qo‘shnichilik kabi ma’naviy qadriyatlar asrlar osha yashab kelmoqda, uni butun insoniyat avaylab-asrab kelmoqda. Mehnatsevarlik, ezgulik, yaxshilik qilish, tinchlik, do‘stlik, halollik, vatanparvarlik va boshqalar ham umuminsoniy ma’naviyat sanalib, u har bir xalq, millatda o‘ziga xos ravishda namoyon bo‘ladi. O‘zidan kattalarni, ota va onani hurmat qilish, farzandlar haqida g‘amxo‘rlik qilish ham umuminsoniy ma’naviy jihatlari bilan ajralib turishini yoddan chiqarmaslik kerak. Vijdon, burch, baynalmilchilik ham umuminsoniy ma’naviyat tizimidan o‘rin olgandir. Yuqorida ma’naviyat tushunchalarining millati yo‘q. U hamma millat, xalqqa barobar tegishlidir. Ammo ularning hammasi faqat muayyan milliy shaklda namoyon bo‘ladi. Umuminsoniy ma’naviyatda biz milliy ma’naviyatning eng oljanob, eng yuksak ko‘rsatkichlarining umumjahon miqyosida mujassamlashgan birligini ko‘ramiz.

Agar milliy ma’naviyat bo‘lmasa, umuminsoniy ma’naviyat yo‘q, umuminsoniy ma’naviyatsiz esa hozirgi zamon ilg‘or millatlari yo‘q. Millatlar umumjahon, umumbashariy ma’naviyatning yaratuvchilaridir. O‘zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov aytganidek: «Bizning milliy xususiyatlarimiz umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘lanib ketgan. Asrlar davomida xalqimiz umumbashariy, umuminsoniy qadriyatlar takomiliga ulkan hissa qo‘shgan. Turli millat vakillariga hurmat, ular bilan bahamjihat yashash, diniy bag‘rikenglik, dunyoviy bilimlarga intilish, o‘zga xalqlarning ilg‘or tajribalari va madaniyatini o‘rganish kabi xususiyatlar ham xalqimizda azaldan mujassam»<sup>1</sup>. Umumjahon, umuminsoniy ma’naviyat esa hozirgi zamon ilg‘or millatlari taraqqiyotining zamini, tayanchi va negizidir.

<sup>1</sup> Каримов И. Донишманд халқимизнинг мустаҳкам иродасига ишонаман.«Фидокор», 2000 йил, 8 июнь.

O‘zbekiston hududida yashaydigan etnik ozchilikning huquqlarini himoya qilish davlat konsepsiysi O‘zbekiston Konstitutsiyasida yaqqol belgilab berilgan. Unda aytilganidek, «O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urfodatlari va an’analari hurmat qilinishini ta’minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi». Mustaqillik yillari millatlararo ma’naviy va madaniy-ma’rifiy munosabatlarning kengayishi va chuqurlashuvi ana shu qonun doirasida rivojlantirilib kelinmoqda. Shu yillar mobaynida milliy uyg‘onish jarayoni faqat o‘zbeklar orasidagina kechib kelmayapti. O‘zbekistonda yashayotgan boshqa millatlarning vakillari orasida ham etnik-madaniy, ma’naviy asoslarda jipslashish jarayonlari faol yuz bermoqda. 1989-yildayoq jamoat tashkilotlari, milliy-madaniy markazlar tashkil etila boshlagan edi. Hozir respublikada 80 dan ortiq milliy-madaniy markaz mavjud.

Bizning jamiyatimiz etnik guruhlari va millatlar o‘rtasida shu hududda yashaydigan har qanday odamga o‘zini erkin va teng huquqli deb his qilishi imkonini beradigan o‘zaro munosabatlar o‘rnatishga intilmoqda. Yurtimizda milliy ayirmachilikning har qanday ko‘rinishlari qoralab kelinmoqda. Milliy kalondimog‘lik g‘oyat zararli, biz ulardan yiroq bo‘lishimiz kerak. Chunonchi, milliy kalondimog‘lik kasaliga yo‘liqqan kishilar o‘z milliy ma’naviyatini bilib, boshqa millat ma’naviyatini tan olmaydilar. Bunday munosabat tamomila noto‘g‘ri. Ular jahon xalqlari ma’naviy merosi o‘rtasidagi aloqadorlikni, bir-birini boyitishini bilmaydilar.

### **Ma’naviyatning tarixiy, nazariy-ilmiy va amaliy zaminlari. Qadimgi O‘rta Osiyo xalqlari ma’naviyatining shakllanish jarayonlari**

Markaziy Osiyo xalqlari milliy ma’naviyati takomil bosqichlari bu o‘lka xalqlari madaniy taraqqiyot jarayoni bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ushbu sahnda yuz beruvchi hodisa sanaladi. Xalqimiz madaniy taraqqiyoti o‘ta murakkab tarixiy hodisalar majmuuni tashkil etib, o‘z ichiga bir necha ming yilliklarni qamrab oladi.

Bizning eng qadimi ajdodlarimiz ma’naviyat va ma’rifati haqidagi ma’lumotlar asrlardan asrlarga o‘tib hozirgacha saqlanib qolgan mif, afsonalar va qadimi yozuvlarda saqlanib kelayotir. O‘rta Osiyo xalqlarining qadimi mif va afsonalari turli mavzularda bo‘lgan. Chunonchi, kosmogonik miflar, hayvonlar va qushlar haqidagi miflar,

xudolar va afsonaviy qahramonlar haqidagi miflar bo‘lib, ularda yaxshilik, baxt-saodat, quyosh nuri va issiqlik, yomonlik, baxtsizlik, zulmat va dahshatli sovuqqa qarama-qarshi qo‘yilgan. Shu asosda baxt o‘lkasi va baxtsizlik o‘lkasi degan miflar yuzaga kelgan. Yaxshilik va yomonlik kuchlari o‘rtasidagi kurash mifologik obrazlar Mitra, Anaxita, Kayumars, Yima (Jamshid), Elikbek va boshqalar obrazida mujassamlashtirilgan. Bular haqidagi miflar biz keyingi masalada ko‘rib o‘tadigan zardushtiylikning «Avesto» kitobiga ham kirgan.

Xalq og‘zaki ijodida mifologik obrazlar bilan birga afsonaviy qahramonlar obrazi ham yuzaga kelgan. Bu qahramonlar kishilarning osoyishtaligi va baxt-saodati uchun kurashib, fidokorlik ko‘rsatadilar. Chunonchi, Gershasp va Elikbek haqidagi afsonalarda ajdar va jinlarni yenggan, o‘limdan qo‘rmas, mard, bahodir, kishilarni halokatdan qutqaruvchi qahramonlar obrazlari tasvirlangan.

«To‘maris» eposida O‘rta Osiyo aholisining chet el bosqinchilariga, xususan, eramizdan avvalgi VI asrda bu o‘lkaga bostirib kirgan eron ahmoniylari shohi Kirga qarshi massaget qabilalarining qahramonona kurashi aks etgan. Kir qo‘sini tor-mor etilib, uning o‘zi eramizdan avvalgi 529-yilda jang maydonida o‘ldiriladi, kallasi tanasidan judo etilib, qon bilan to‘ldirilgan meshga solinadi.

«Shiroq» eposi ham O‘rta Osiyo xalqlarining chet el bosqinchilariga qarshi qahramonona kurashini aks ettiradi. Vatanparvarlik va jasorat, vatan va o‘z xalqi baxti-saodati yo‘lida fidoyilik qilishga shay, tayyor turish kabi yuksak ma’naviylik sak qabilasining cho‘poni Shiroq timsolida gavdalangan.

Yuqoridagi har ikkala xalq og‘zaki ijodi namunalari zaminida haqiqiy tarixiy faktlar yotadi.

To‘maris va Shiroq xalq qahramoni bo‘lib, o‘z xalqi, Vatani uchun jonini ham ayamaydigan buyuk va betimsol mardlik va jasorat namunasi sanaladi. Ularga ham qoyil qolib havas qilamiz.

Markaziy Osiyoda ma’naviyat bilan birga ma’rifat ham rivojlangan. Ma’rifat rivojining isboti sifatida bu o‘lka xalqlarining yozuvini ko‘rsatish mumkin. Eramizdan avvalgi birinchi ming yillik o‘rtalarida oromiy, grek yozuvlari, forsiy mixxat mavjud bo‘lgan. Keyinroq avesto, xorazm, sug‘d, kushon, run (O‘rxun-Enasoy), uyg‘ur yozushi kelib chiqqan.

O‘rta Osiyo xalqlari juda qadim zamondaryoq sug‘orish inshootlari qurganlar, kanallar ochganlar, chig‘ir va koriz usuli bilan suvsiz yerlarga

suв chiqarganlar. Albatta, bular kishilardan ma'lum tajriba va bilimni talab etgan.

Shunday qilib, bizgacha yetib kelgan ma'lumotlarga asoslanib, Markaziy Osiyo qadimiy madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat o'choqlaridan biri bo'lgan degan xulosa chiqara olamiz va bu bilan faxrlanamiz.

«Avesto» zardushtiylik dinining muqaddas kitobi. Zardusht eramizdan avvalgi 660-yilda Xorazmda dunyoga kelgan. Otasi savodli bo'lib, karomatgo'y bo'lgan ekan. Zardusht 20 yoshidan boshlab yakkaxudolikni targ'ib qilgan. 28 yoshida shuhrat qozonadi, lekin uning targ'ibotlari mahalliy hukmdorlarga yoqmaydi. Uni osishga hukm etadilar. Zardusht o'zi bilan 300 ga yaqin safdoshlarini olib hozirgi Afg'oniston tomonga yo'l oladi va o'z g'oyalarini targ'ib etadi. U 77 yil umr ko'rgan.

«Avesto»da mehnat nihoyatda ulug'lanadi. Mehnatni yaxshilik, moddiy noz-ne'matlar manbai deb biladi. Inson saxovatli bo'lishi uchun, avvalo, mehnat qilishi, o'z qo'li bilan noz-ne'matlar yaratishi zarurligi uqtiriladi. «Avesto»da: «Don ekkan kishi taqvodorlik urug'ini ekadi, u Mazdaga ixlosmandlik e'tiqodini olg'a suradi, iymonni oziqlantirib turadi..», deyiladi. Bunga amal qilish o'n ming marta ibodat qilish bilan barobar, yuzlab qurbanlik qilishga teng. Ekin ekish, mehnat qilish – yerdagi yovuzlikni yo'qotishdir, deb qaraladi. «G'alla yerdan unib chiqqanda, – deyiladi «Avesto»da, devlar larzaga keladi, g'alla o'rib olinayotganda devlar nola-faryod chekadi, g'alla yanchib un qilinayotganda ular mahv bo'ladi...», – deb mehnat ulug'lanadi.

Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Al-Beruniy, Al-Buxoriy, G'azzoliy, Hamadoniy, G'ijduvoniy va boshqa ulug' zotlarning hayot tarzi, ilm uchun fidoyiligi, e'tiqod-iymonining pokligi bilan bizlarga ibratdir. Bularning hammasi ko'rsatadiki, dindorlik ham ma'rifatni, yuksak ma'naviyatni talab qiladi. Kishi qancha chuqur ilm egasi bo'lsa, olam va odam mohiyatini anglasa, uning Alloohni anglashi, iymoni ham shuncha mustahkam bo'ladi.

Gap xoh diniy, xoh dunyoviy ma'rifatni to'g'ri va chuqur anglashda, har ikkovini ham egallamay nodon, johil bo'lib qolmaslikdadir.

Tasavvufda insondagi jamiki xudbinliklar, illatlar, razolat dunyosiga xirs qo'yish jism ehtiyoji va nafs ta'masidan kelib chiqadi, deb o'rgatiladi. Komil inson bo'lish uchun, avvalo, jism va nafs ehtiyoji va ta'masini yengish kerak. Dunyoga, boylikka mehr qo'yish kishini naffsiga qul qilib qo'yadi. Darvesh, so'fiy nafsn rad etadi. Nafs barcha

falokatlar sababchisi, insonni tubanlashtiruvchi narsa. Insonni falokat botqog‘idan, tubanlik jaridan qutqarib, uni poklashning birdan-bir yo‘li nafsnинг ehtiyojini yengishdir. Buning uchun dunyo muhabbatidan voz kechish va Alloh muhabbatiga ko‘ngil bog‘lash darkor. So‘fiylikda buni dunyo mohiyatini va o‘zligini, insoniylikni anglash yo‘li deb qaralgan. O‘zligini anglagan kishi esa dunyo va uning boyliklari o‘tkinchi ekanligini anglaydi. Xoja Bahouddin aytadilar: «O‘z nafsining yomonligini tanish o‘zligini tanishdir».

Shuni iftixor bilan qayd etishimiz lozimki, tasavvuf ta’limoti taraqqiyotida Turkiston farzandlarining xizmati beqiyos bo‘lgan. Xoja Hakim at-Termiziy, Shayx Abu Mansur al-Moturidiy, as-Samarqandiy, Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy, Xoja Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg‘oniy, Shayx Najmuddin Kubro, Xoja Ali Romitaniy, Abu Ali al-Farmadiy, Yusuf Hamadoniy, Bahouddin Naqshband kabi siymolar ilohiy ma’rifat yo‘lining rahnamolari bo‘ldilar. Ular yaratgan ta’limot va ilgari surgan ma’naviy-axloqiy g‘oyalar hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Chunonchi, Ahmad Yassaviy hikmatlarida ilgari surilgan axloqiy pand-nasihatlardan molparastlikni fosh etish, kishilarni insofli, diyonatli, iymonli bo‘lishga chaqirishda foydalanish o‘rinli. Yassaviy inson hayotidagi katta kurash – nafshi taslim etishga xizmat qiladigan kurash deb hisoblagan. Nafsga mag‘lub shoh – qul, nafsdan ustunlikka erishgan g‘arib – shohdir, deb aytadi.

Naqshbandiya ma’naviy-axloqiy ta’limotida hurfikrlikka keng o‘rin berilgan. Bu sulukdagilar mehnat qilish, ilm olish, o‘z mehnati evaziga halol yashash, noz-ne’ matlarni ko‘pchilik bilan baham ko‘rish, faqirona hayot kechirish, hammaga yaxshilikni ravo ko‘rishni afzal bilganlar.

Bahouddin Naqshband aybsiz odam yo‘q, shuning uchun agar aybsiz do‘sst axtarsak, do‘stsiz qolamiz, – der edilar.

Odamlarga yaxshilik qilish eng yuksak insoniy burch ekanligini ta’kidlab, sham kabi bo‘lgin va odamlarga yorug‘lik ber, o‘zing esa qorong‘uda bo‘l, degan ekanlar.

1998-yilda esa Imom al-Buxoriyning 1225 yilligi nishonlandi. Qur’oni Karim, hadislar va boshqa diniy kitoblar nashr qilindi, qilinmoqda. O‘tmishda birorta ham diniy ulamonining tavallud kuni o‘tkazilmas edi, diniy kitoblarni nashr etish ta’qiqlangan edi, yuqorida aytganimizdek, borlari ham yo‘q qilingan edi. 1999-yilda Toshkent Islom universiteti tashkil etildi. Mustaqillik yillari islom dini va islomiy qadriyatlarni tiklash borasida asrlarga teng amaliy ishlar bajarildi. Islom

va islomiy qadriyatlar ma’naviy va ma’rifiy hayotimizning tarkibiy qismiga aylanib qoldi.

So‘nggi yillarda bizning diyorimizda ham taraqqiyotimiz, osoyishtaligimizni ko‘rolmaydigan «vahobiylig» va «hizbut-tahrir» kabi oqimlarning guruh va to‘dalari paydo bo‘lib qoldi. Bunday to‘dalar o‘zlaricha masjidlarda g‘avg‘o ko‘tarib, o‘tish davrining qiyinchiliklaridan foydalanib, ayrim yoshlarning ongini zaharlamoqdalar. Mustaqillikning bergen erkinligini suiste’mol qilmoqdalar. Bu mutaassib dindorlar o‘zlarini «vahobiy» yoki «dinni tozalovchilar», «fundamentalistlar» deb yuritib, aslida esa birinchi navbatda islomning o‘ziga zarba bermoqdalar. Vahobiylar bir yarim ming yillik ilm-fan, madaniyat tarixidan voz kechish, Imom Buxoriy, Imom G‘azzoliy, Imom Abu Xanifa, Burxoniddin Marg‘inoniy, Ahmad al-Farg‘oniy, Navoiy, Jomiy, Ulug‘bek, Bahouddin Naqshband va boshqa o‘nlab mutafakkirlar, so‘fiylar, olimlar merosidan voz kechish, ularning asarlarini yoqib yuborishni, maqbaralarini buzib tashlashni tavsiya qilmoqdalar. Ular, umuman, inson aqli, inson qalbi bilan yaratilgan jamiki ma’naviy boyliklarni uloqtirib tashlashga da’vat etmoqdalar. Axir bu vahshiylik, nodonlik, johillikning o‘zi-ku. Ma’naviyatli va ma’rifatli kishi, buni mutlaqo qabul qilmaydi.

Vahobiylik bizni orqaga, jaholatga tortadigan, islom ahlini buzadigan xavfli oqim. «Dinni tozalash», «sof dinga qaytish» niqobi ostida tashviqotlar olib borib, odamlarni tahlikaga solish, qonli jinoyatlar qilish, otani bolaga, akani ukaga dushman qilib, jamiyatimizni xavf ostiga qo‘yayotganlardan milliy qadriyatlarimizni avaylab-asrashimiz lozim.

Diyorimizda din niqobi ostida ish ko‘rayotgan ekstremistlar, aqidaparastlar mavjud konstitutsiyaviy tuzumga qarshi borib, hokimiyatni egallash va O‘zbekistonda islom davlati qurish, xalqni qo‘rquvga solib, hukumatga ishonchsizlik uyg‘otish uchun turli jinoyatlar va terroristik harakatlar sodir etish yo‘li bilan el tinchligini buzishga urinmoqdalar. ularning asl maqsadi hukumatparastlik, ya’ni davlatni qo‘lga olishdan iborat. Mustaqil yurtimizda ularga o‘z vaqtida zarba berildi va ularning payi qirqildi.

Yoshlارимиз doimo va har on ogoh va yana ogoh, sergak bo‘lishlari – zamon talabi. Yoshlаримиз ongiga mustaqillik g‘oyasini chuqr singdirishimiz lozim, toki ular milliy ildizlari baquvvat, dunyonи chuqr anglaydigan, zamon taraqqiyoti bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo‘lib yetishsin. Ana shunda johil aqidaparastning «da’vati»

ham, axloqni rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g‘oyalar ham ularga o‘z ta’sirini o‘tkaza olmaydi.

## **O‘rta Osiyo falsafiy tafakkurida ma’naviyat va ma’rifat masalalari**

O‘rta Osiyo tarixiy voqealarga g‘oyat boy o‘lka bo‘lishi bilan birga azaldan ilm-fan, madaniyat va ma’naviyatning markazlaridan biri bo‘lib kelgan. Bu o‘lka dunyoga ma’naviyat va ma’rifatning barcha sohalarida yuzlab, minglab jahonshumul ulug‘ zotlar, davlat arboblarini tarbiyalab bergen. Umumbashariyat ma’rifatparvarligini yaratishda buyuk ajdodlarimiz bevosita ishtirok etganlar, uning taraqqiyoti va boyishiga ulkan hissa qo‘sghanlar. O‘rta Osiyo madaniy merosi jahon madaniyati va ma’rifatining uzviy ajralmas tarkibiy qismidir.

Sharq falsafiy, ijtimoiy, axloqiy fikri rivojini Abu Nasr Forobi (873-950) siz tasavvur etish qiyin. U «Sharq Aristoteli», «Ikkinch muallim» degan unvonga sazovor bo‘lgan mashhur mutafakkirdir. Sharqda qadim Yunonistonning eng mashhur faylasufi Aristotel «Birinchi muallim» deb yuritilgan. Forobi ko‘p tillarni bilgan qomusiy olim. U yaratgan asarlarning umumiyligi soni 160 ta bo‘lib, uni ikki guruhga ajratish mumkin: a) qadimgi yunon faylasuflari va tabiatshunoslari – Aristotel, Platon, Evklid, Galen va boshqalarning ilmiy meroslarini tarjima qilish, sharhlash, targ‘ib qilish va o‘rganishga bag‘ishlangan asarlar; b) o‘rta asr fanining tabiiy, ijtimoiy-falsafiy sohalariga oid risolalar. Jumladan, Aristotelning «Metafizika» asariga izoh, Aristotelning «Osmon sistemasi» kitobiga izoh, «Aristotelning «Etika» kitobiga sharh», «Substansiya haqida so‘z», «Masalalar manbai», «Qonunlar haqida kitob», «Bo‘shliq haqida kitob», «Musiqa haqida so‘z» va boshqalarni ko‘rsatish mumkin. Forobiyning fikricha, insonning va jamoatning g‘alabaga erishuvi, yaxshilikni qo‘lga kiritishi, axloqiy va aqliy mukammallikka ko‘tarilishi inson va jamoatning o‘z qo‘lidadir.

U davlatni fozil va johil davlatlarga bo‘ladi. Fazilatli shaharlarda ilm, falsafa, axloq-ma’rifat birinchi o‘rinda bo‘lmog‘i lozim, deb biladi. Shunda jamiyat yetuklikka erishadi, deydi. Fozil shahar boshlig‘i bilimni, haqiqatni sevuvchi, yolg‘on va yolg‘onchilarga nafrat bilan qarashi,adolatni yaxshi ko‘rvuchi vaadolat uchun kurashuvchi bo‘lishi kerak, – deb aytadi. Forobi inson kamoloti uchun xizmat qilgan, xayr-ehsonli ishlar, go‘zal insoniy fazilatlarni yaxshilik deb hisoblaydi.

Insonning kamolotiga to'sqinlik qiluvchi dangasalik, bekorchilik kabi yomon odatlar, bilimsizlik, ongsizlik, kasb-hunarga ega bo'lmashlik kabi nuqsonlarni yomonlik deb, kishilarni undan ogohlantiradi.

Forobiy hayotning oliy maqsadi baxt-saodatga erishuvdan iborat, kishilar bunga olamni o'rganish, kasb-hunar va ilmlarni o'zlashtirish – ma'rifatli bo'lish orqali erishadi deb qaraydi.

Insonning oliy fazilati boshqalar haqida g'amxo'rlik qilishdan iboratdir. O'rta asr qomusiy allomalaridan yana biri Beruniy doimo xalqlarning do'st, inoq, ittifoq bo'lib yashashi uchun kurashib keldi. U insoniyatga, u yaratgan madaniyatga qirg'in keltiruvchi urushlarni qoraladi. Beruniy madaniy hamkorlik va ilm-ma'rifatning keng tarqalishiga katta e'tibor bergen allomadir.

Insonning abadiyligini belgilovchi omillardan biri ilmdir, deydi mutafakkir. Inson umrining boqiyligi, abadiylicha haqidagi bunday qarashlar tahsinga sazovor. Zero tarixda abadiy nomi qolgan ma'naviy tirik siymolar faqat ilm-ma'rifat va o'zlarining yaxshi ishlari bilan o'z nomlarini abadiyatga muhrlab ketganlar. Ular yoqqan ilm-ma'rifat shamlari necha asrlar bo'yi insoniyat yo'lini yoritib kelmoqda. Bunday siymolar qatoriga dunyoviy va diniy ilmlar sohiblari kiradi.

## **Amir Temur va temuriylar sulolasi davrida ma'naviyat**

Amir Temur – buyuk shaxs, kuragi yerga tegmagan sarkarda, yirik davlat arbobi, qonunshunos, iste'dodli me'mor, notiq, ruhshunos, shu bilan birga el-yurtini, xalqini sevgan va uni mashhuri jahon qilgan inson. Amir Temurning tarixi ko'p jildlik kitoblar yozishga arziydi.

Amir Temur 1336-yilning 9-aprelida Shahrisabzning Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tavallud topdi. Temurning yoshligi va yigitlik yillari mamlakat og'ir ijtimoiy-siyosiy bo'hron iskanjasiga tushib qolgan bir davrda kechdi.

Uzoq va mashaqqatli kurashlardan so'ng Amir Temur o'z raqiblarini yengib, hokimiyatni qo'lga kiritdi.

Amir Temurning tarix oldidagi xizmati benihoyat katta. Birinchidan, u mamlakatda yuqorida aytganimizdek, kuchayib ketgan feudal tarqoqlikka barham berib, el-yurtni o'z tug'i ostiga birlashtira oldi, markazlashgan yirik feudal davlatini yaratdi. Bu bilan hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniyat rivojiga mustahkam zamin yaratib berdi. Bugun «Temur va Temuriylar madaniyati», «Temuriylar davlati», «Ulug'bek va Samarqand astronomiya maktabi», «Navoiy» va «Bobur»

kabi qutlug‘ so‘zlarni nafaqat o‘zbekning, balki jahon xalqlari asarlari sahifalarida uchratar ekanmiz, buning zaminida, albatta, Amir Temurning ulkan xizmatlari yotadi. Amir Temur zamonida yozilgan asarlarni qunt bilan o‘qisak, o‘rgansak, uning ko‘p yaxshi xislatlari: to‘g‘rilik, muruvvatlilik, el-yurtga mehr-muhabbat va boshqalarni bilib olishimiz mumkin. Amir Temurning «Temur tuzuklari», Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiylarning «Zafarnoma»lari, Ibn Arabshohning «Temur haqidagi xabarlarda taqdir ajoyibotlari» va boshqa asarlarda keltirilgan sohibqironning ibratli ishlari, pand-nasihatlari va o‘gitlaridan ham uning kimligini bilib olsa bo‘ladi. Bular el-yurt va fuqarolarning tashvishi, raiyatparvarlik, mehr-muruvvat, qo‘sni chilikka riosa qilish, va nihoyat, mardlik va qahramonlik haqidagi o‘gitlardir.

Abdurahmon Jomiy temuriylar davri dunyoqarashi, mafkurasi bo‘lmish naqshbandiychilikka ixlos qo‘ygan, uni qabul qilgan, o‘zi shu yo‘ldan borgan va uning g‘oyalarini targ‘ib etgan. Naqshbandiychilik adolatni, o‘z mehnati asosida bunyod etilgan halol luqmani ma’qullagan, dabdabali hayotni rad etgan, g‘irrom yo‘llar bilan mol-mulk to‘plashni qoralagan. Bu ta’limot insonparvarlik, rostgo‘ylik, halollik, mehnatsevarlik, ma’naviy poklik, kamtarlik, samimiylit kabi chin insoniy fazilatlarni ulug‘lagan. Uning «Dil ba yoru, dast ba kor», ya’ni «Ko‘ngil Allohda-yu, qo‘l mehnatda» shiori Jomiy va Navoiy kabi mutafakkirlarni o‘ziga jalb etgan. Shu sababli bu ikki ulug‘ siymo, so‘z san’atkorlari naqshbandiychilik yo‘lini qabul qilganlar va o‘z ijodlarida uning g‘oyalarini tarannum etganlar.

O‘zbek xalqining buyuk farzandi, mutafakkir, davlat arbobi, o‘zbek adabiyoti va tilining asoschisi Alisher Navoiy O‘rta Osiyoning ma’naviy va ma’rifiy fikr taraqqiyotida alohida o‘rin tutadi. U adabiyot, san’atning turli sohalariga oid qirqdan ortiq asar yaratdi. «Chor devon», «Xamsa», «Mahbub ul-qulub», «Muhokamat ul-lug‘atayn», «Majolis un-nafois», «Lison ut-tayr» va boshqalar shular jumlasidandir.

Temuriylar davri ilm-fan, ma’rifat, ma’naviyat va madaniyati jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shildi. Bunda ulug‘ bobomiz, davlat arbobi, sarkarda sohibqiron Amir Temurning xizmatlari beqiyos va benazirdir.

## **Jadidchilar ma'rifatparvarlik harakatining xalq ma'naviyatini ko'tarishda tutgan o'rni**

Ma'rifatning lug'aviy ma'nosi bilish, tanish, bilim demakdir. Boshqacha aytganda, ma'rifat bilmoq, kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonidir. Ma'rifat so'zining ma'nosi maorifdir. Ma'rifat atama sifatida tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli-tuman bilimlar, ma'lumotlar majmuasini bildiradi. Ma'rifatli degani bilimli, muayyan sohada ma'lumoti bor, deganidir. Fanlar chuqur va keng rivojlanib borayotgan hozirgi davrda bilim va ilmga intilgan har bir kishi, talaba, fan namoyandasini ilmning, ya'ni ma'rifatning ma'lum sohasinigina egallashga erisha oladi.

Jamiyatda ma'rifat, ya'ni bilim ma'rifatparvarlar orqali yoyiladi. Ma'rifatparvar ma'rifat uchun kurashuvchi; ilm, bilim chirog'ini yoquvchi; ma'rifat homiysi va tarafdori demakdir.

Turkiston ma'rifatchilik maktabi boy o'tmish va ulkan merosga ega. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li, Abdulqodir Shakuriy, Ashurali Zohiriy, Saidrasul Saidaziziy, Ishoqxon Ibrat va Ahmad Donishlar XIX asr oxirlarida faoliyat boshlab, mamlakatni, xalqni milliy zulm va qoloqlikdan xalos etishning yagona yo'li ma'rifatda deb bildilar. Bu fidoyi zotlar mustabid tuzum va jaholatga, ma'naviy qullik va zulm-zo'ravonlikka qarshi bor kuchlari bilan kurash olib bordilar. Bu ma'rifatparvar bobolarimiz dunyo kezib, dunyo xalqlarining ilmu urfoni, madaniyati bilan tanishib, mustamlaka o'lkani, uning kishanlarini ilm chirog'i bilangina parchalamoq mumkin ekanini chuqur his etdilar. Shu sababli ham, eng avvalo, yurtimizda maktab-maorif ishlarini rivojlantirishda ham amaliy, ham nazariy jihatdan azmu shijoat namunasini ko'rsatdilar.

Jadidchilarning qismati chor hukumati, Vaqtli hokimiyat va, ayniqsa, sobiq Sho'rolar tuzumi davrida nihoyatda fojiali bo'ldi. Ularning ko'pchiligidagi yuqorida bayon qilingan talablari uchun millatchi, «panturkist» degan tamg'a bosilib, qatag'on qilindi, jadidlar g'oyalari va harakatiga qora chiziq tortildi. Uning zaminlari shakllanishi tarzini o'rganishga intilganlar ham tazyiq ostiga olindi. Uni o'rganishga intilganlar ham ta'qib qilindi. Mustaqillik sharofati bilan Turkiston xalqlarining erki, mustaqilligi, milliy davlatchilik g'oyalari, ma'rifati uchun kurashgan vatanparvarlarning muborak nomlari tiklandi, asarlari chop etildi. Jadidlarning g'oyalari o'lmas g'oyalar bo'lgani uchun ham mustaqillik bilan birga hayotimizga qayta kirib keldi.

## **Mustamlakachilik va qaramlik sharoitida ma’naviyat**

Tarixdan ma'lumki, bir xalqni o'ziga tobe qilishni istagan kuchlar, avvalo, uni o'zligidan, tarixidan, madaniyatidan judo qilishga intiladi. Bosib olingan mamlakat xalqlari madaniy-ma'naviy taraqqiyotini bo'g'ib qo'yish istilochi, bosqinchi mamlakatlar tomonidan mustamlakachilik tartiblarini saqlab turish va mustahkamlashning azaliy, tarix sinovidan o'tgan an'anaviy yo'llaridan biri bo'lib hisoblanadi. Istilochi mamlakat itoat qildirilgan xalqlarni bora-bora o'ziga singdirib borishni, buning uchun o'z mafkurasi va g'oyalarini ularga majburan joriy etish, madaniyatiga shikast yetkazish, milliy tili, milliy urf-odatlari va milliy qadriyatlari rivojiga yo'l bermaslikni o'z siyosatining asosiy maqsadi deb biladi. Xitoy donishmandi Konfutsiy bundan 2700 yil ilgari o'z imperatoriga shunday maslahat bergen ekan: «Hoqonim, agar biror mamlakatni bosib olib, u yerda uzoq hukmronlik qilmoqchi bo'lsangiz, dastavval o'sha yerda yashayotgan xalqni o'z tarixiy madaniyatidan mahrum eting, ma'naviy bo'hronni kuchaytiring. O'z madaniyatidan bebahra bo'lib, ma'naviy qashshoqlik holatiga uchragan xalq uyushmaydi, ichki nizolar girdobiga o'raladi, sizga qarshilik ko'rsata olmaydi. Bunday holga kelgan xalqni, mamlakatni idora qilish qiyin bo'lmaydi». Madaniyat va ma'naviyatni barbod etish, milliy til, urf-odatlar kamolotiga yo'l bermaslik itoat ettirilgan xalqni jilovda ushlab turishning eng zarur va nozik yo'llaridan biri ekanligini istilochi va bosqinchilar doimo juda yaxshi bilgan. Shuning uchun ham mustamlakachi va bosqinchilar xitoy donishmandi aytgan gaplarni oldindan rejalashtirib qo'yishadi.

Madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat zarbaga uchrab, xalqning mamlakatning ma'naviyati va ma'rifati barbod bo'laversa, odamlar o'z-o'zidan e'tiqodsiz bo'lib ketadi. Unday o'lkada, mamlakatda ommaning olomonlashuvi, siyosiy manqurtlik, beparvolik boshlanadi. Oxir-oqibatda milliy g'urur, iftixon, milliy qadriyatlар asta-sekin zaiflasha boshlaydi. Ana shunday o'lkani, mamlakatni, uning xalqini mustamlakachilik kishanlarida ushlab turish, itoatkor qulga aylantirish mumkin.

Chingizzon ham O'rta Osiyo zaminini istilo qilayotganida o'z sarkardalariga shaharlarga nodon, irodasiz, ahmoq kishilarni boshliq etib tayinlanglar, ularni qo'llab-quvvatlanglar va ko'klarga ko'tarib maqtay beringlar, mahalliy xalqlarning, aqli, bilimli, obro'-e'tiborli kishilarini yo'q qilinglar, deb topshiriq berar ekan. Bu siyosatning ham chuqr

o‘ylangan sabablari bo‘lgan. O‘z madaniyatidan, obro‘-e’tiborli, dono vakillaridan judo bo‘lgan xalq ma’naviy rahnamosiz qolib qovusha va uyusha olmaydi.

Ma’naviyat va ma’rifat xalqning o‘z o‘tmishini bilishi va istiqbolini tushunib yetishiga yordam beradi, Vatanni sevish va u bilan faxrlanishga da’vat etadi, dushmanlarga, bosqinchi va mustamlakachilarga qarshi murosasiz kurash olib borishga, erk vaadolat uchun jasorat ko‘rsatishga undaydi.

Ma’naviyat va ma’rifatdan mahrum xalq milliy jihatdan o‘zini anglab ololmaydi, taqdirga tan berib yashashni o‘ziga ep ko‘radi. Chor amaldorlari buni yaxshi anglagan holda o‘z mustamlaka asoratiga solgan Turkiston xalqlarini ma’naviyat, ma’rifat va madaniyatdan bebahra qoldirish masalasiga alohida ahamiyat berdilar, bu yo‘lda hech tap tortmay insof-u diyonatni, rahm-shafqatni butunlay unutdilar.

O‘tmish xalq og‘zaki ijodi ma’naviyatimizning ilk sarchashmasi sanaladi. Totalitar tuzum davrida xalqimizning qadimiyligi qadriyatlari, xalq og‘zaki ijodining yuksak namunasi sifatida asrlardan-asrlarga ma’naviy meros bo‘lib o‘tib kelayotgan afsona, rivoyat, ertak, maqollarga, «Alpomish», «Go‘ro‘g‘li», «Rustam», «Avazxon», «Hasanxon», «Ravshanxon» kabi dostonlarga bir yoqlama munosabatda bo‘lindi, ularga zamonasozlik, sinfiylik, partiyaviylik nuqtayi nazaridan turib baho berildi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodiyotining har bir asariga ikki sinf, ikki madaniyat nazarialiysi asosida baho berildi, kommunistik mafkura nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda yondashildi. Ulardagi milliy va umuminsoniy qadriyat va g‘oyalar nazar-pisand qilinmadni. Chunonchi, «Alpomish» dostonida xonlar, beklar maqtaladi, bosqinchilik va zo‘ravonlik targ‘ib qilinadi, islom diniga mansub bo‘limgan boshqa xalqlarga yomon munosabat tasvirlanadi, degan ayblar to‘nkaldi. Dostonning bosh qahramoni Alpomish mehnatkash xalqning oljanob fazilatlarini va orzu-umidlarini o‘zida ifoda etmaydi, aksincha, u hokim, qonxo‘r bek, tipik zo‘ravon va zolim sifatida harakat qiladi, deb da’vo qilindi.

Til – har bir xalq va millatning milliy o‘zligini namoyon qilishda muhim vositadir. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir. O‘z tilini yo‘qotgan har qanday millat o‘zligidan judo bo‘lishi muqarrar! Shaxs ma’naviy kamolotining zarur shartlaridan biri o‘z ona tilini bilishidir. Til bilmaydigan odam xalqning dilini ham bilmaydi. Biror bir sabab tufayli milliy til yo‘qolsa, millat bora-bora yo‘qolib

ketadi, milliy o‘ziga xosligini yo‘qotadi. Shunday bo‘lgach, biror bir milliy tilning yo‘qolishi o‘sha xalqning muqarrar ravishda halok bo‘lishiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasida hozirgi paytda yoshlar maktablar va oliy o‘quv yurtlarida rus, ingliz, nemis, fransuz, ispan tillari bilan bir qatorda Sharq xalqlari tillarini ham katta qiziqish bilan o‘rganmoqdalar. Arab, fors, hind, xitoy tillarini o‘rgatish natijasida aksariyat qismi arab va fors tillarida yozilgan qadimiy qo‘lyozmalarimizni bemalol o‘qib-o‘rganadigan yetuk mutaxassislarga ega bo‘lamiz.

## **Yetakchi axloqiy qadriyatlar**

Oliy ta’lim muassasasida ma’naviy-ma’rifiy ishlar sog‘lom va izchil metodologiya asosida tashkil etilmasa, jamiyat a’zolarining ma’naviyatida yuksalish ro‘y bermaydi. Ma’naviyat yuksalmagan jamiyat esa tanazzul girdobidan chiqsa olmaydi. Har qanday jamiyatning kuchi fuqarolarining ma’naviy fazilatlari darajasi bilan belgilanadi. Jamiyatni qudratli qilgan o‘lchamlar iqtisodiy ko‘rsatkichlar, ishlab chiqarish hajmi, hatto odamlarning farovonlik darajalari ham bo‘lmay, muayyan jamiyatda yashayotgan kishilarning insoniy fazilatlari, shakllantirgan va amal qilayotgan qadriyatlardir. Ma’naviy fazilatlar qandayligi jamiyatning qandayligini belgilaydi. Uning iqtisodini taraqqiy ettirish, siyosatini takomillashtirish, ijtimoiy tuzumini yuksaltirish darajasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri fuqarolarning ma’naviyat darajalariga bog‘liqdir. Muayyan jamiyat undagi ustuvor ma’naviy, siyosiy, iqtisodiy, axloqiy, huquqiy va boshqa qadriyatlar hamda talablarga jamiyat a’zolari og‘ishmay amal qilgan taqdirdagina sobit taraqqiy eta oladi. Jamiyatning tarixiy, iqtisodiy, jo‘g‘rofiy, mafkuraviy o‘ziga xosliklari tufayli maydonga kelgan qadriyat va me’yorlarga fuqarolarning ochiq yoxud yashirin amal qilmay qo‘yishi, ulardan bo‘yin tovlashi mazkur jamiyatning tanazzulidan dalolatdir. Insoniyat tafakkuri va amaliyoti tarixidagi abadiy kategoriyalardan biri bo‘lmish ma’naviy-ma’rifiy tarbiya hamisha jamiyatdagi yetakchi axloqiy qadriyatlar bilan ularning odamlar tomonidan bajarilishi o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlashga yo‘naltirilib kelinadi.

Keng jamoatchilikning, ilg‘or fikrli ziyorilarning tajribasi, bilimi, salohiyatiga tayangan holda jamiyatning har bir a’zosining yurt tinchligi, el saodatiga xizmat qiladigan intilish, izlanish va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash orqali kuchli davlatdan kuchli jamiyat yaratish

tamoyilini muntazam targ‘ib va tashviq etishni uyushtirish, ro‘yobga chiqarish ma’naviyatning bosh vazifasidir. Bundan oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan ko‘p ming sonli talabalar ham mustasno emas. Talaba-o‘quvchilarning ma’naviy madaniyatini yuksaltirish, mustaqil fikrlash jarayonini shakllantirish metodologiyasi ma’naviy ong va tafakkurni, milliy mustaqillikni amalga oshirish va rivojlanadirish jarayonini ta’minlovchi asosiy omil bo‘lib, hayot jarayonidaadolat, insonparvarlik, o‘z-o‘zini anglashni va jahon ijtimoiy, madaniy taraqqiyotini, umuminsoniy, milliy, madaniy, ma’naviy qadriyatlarni uyg‘un holda o‘zlashtirish mahoratini shakllantirishga xizmat qilmog‘i darkor. O‘z xalqining tarixini, milliy qadriyatlarini, tilini, istiqbol manfaatlarini bilmagan, qadrlamagan, milliy mansubligini unutgan, o‘z millatining istiqboli uchun qayg‘urmaydigan, kurashmaydigan kishilarda milliy g‘urur ham, millat bilan faxrlanish ham, millatparvarlik ham bo‘lmaydi. Bunday kishilarni ma’naviy barkamol inson deya olmaymiz.

Millat va elatlarning o‘ziga xos tarixiy merosi, san’ati va adabiyoti bilan bir qatorda ularning urf-odat va marosimlari, madaniy munosabat va axloqiy fazilatlari ham ma’naviy qadriyatlar tizimiga kiradi. Bular xalqning o‘ziga xosligini saqlab qolishda, yosh avlodni tarbiyalashda, shaxsning ijtimoiylashuvida muhim rol o‘ynaydi. Milliy-ma’naviy qadriyatlarda xalqning dunyoqarashi va hayotga munosabati, ichki tabiatini va turmush tarzi o‘z ifodasini topadi. Bularda millatning ruhiy olami va tafakkur tarzi, orzu-umidlari va ideallari, vijdoni va or-nomusi aks etadi.

Ma’naviyat jamiyat taraqqiyoti, millat kamoloti va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi, ma’naviyat rivojlangandagina jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik vujudga keladi hamda mamlakat va millat taraqqiy etadi.

## **Ma’naviyat tushunchasi va uning rivojlanish xususiyatlari**

Ma’naviyat ko‘proq inson qalbiga, botiniy tomoniga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Shu ma’noda ma’naviyat inson qalbidagi ilohiy bir nur sanaladiki, bu ilohiy nur hech bir jonzotda yo‘q. Ma’naviyat shunday sehrli tilsimki, uni tugal yechishga bashar qudrati yetmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ma’naviyat – **insonning ruhiyatini, uning o‘z-o‘zini anglashi, didi, farosati,adolat bilan razilikni, yaxshilik bilan yomonlikni, go‘zallik bilan xunuklikni, vazminlik bilan johillikni ajrata bilish qobiliyatini, aql-zakovatini, yuksak**

**maqsad va g‘oyalarni qo‘ya bilish, ularni amalga oshirish uchun harakat qilish va intilish salohiyatidir**, – deb ta’rif berish o‘rinli deb hisoblaymiz.

Ma’naviyat inson tug‘ilishida ona suti, uning allasi, mehri, ajdodlar qadriyatlari ta’siri ostida shakllanadi. Uning shakllanishida oiladagi muhit, jamiyatdagi hamjihatlik, davlat olib boradigan siyosatdagi adolatparvarlik va insonparvarlikning qay darajada amal qilinishi asosiy o‘rinni egallaydi.

Ma’naviyatning moddiy kuchga aylanishi har bir insonning xatti-harakatlarida, o‘z oilasi, millati va Vataniga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Yuqorida aytganimizdek, uning shakllanishida ota-onas, inson yashayotgan atrof-muhit, milliy, diniy qadriyatlari, jamiyatdagi insonparvarlik va adolatparvarlik siyosati muhim ahamiyatga ega.

Odam ota-onadan tug‘iladi, ammo uning axloqi, odob borasidagi fazilatlari, ya’ni ma’naviy dunyosi jamiyatda, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy munosabatlar ta’sirida shakllanadi. Insonning ma’naviy olami, asosan, ijtimoiy taraqqiyotning mahsuli bo‘lsa ham, u o‘z navbatida, jamiyat taraqqiyotiga nihoyatda katta ta’sir ko‘rsatadi, uni belgilab beradigan omillardan biri sanaladi. Odamlarda axloq, odob, iymon, vijdon, halollik, mehnatsevarlik, baynalmilalchilik, insonparvarlik e’tiqodi, vatanparvarlik, milliy va insoniy g‘urur tuyg‘usi, burch va mas’uliyatni his qilishi qanchalik kuchli, yuqori bo‘lsa, jamiyat taraqqiyotining zaminlari ham kengayishiga, tinchlik, osoyishtalik, hamjihatlik barqaror bo‘lishiga olib keladi.

Jamiyat taraqqiyotining har bir yangi bosqichi kishilarning ma’naviy kamolotida ham yangi davrning yuzaga kelishidir. Ma’naviyatsiz adolatli, yuksalish imkoniyatiga ega bo‘lgan jamiyat bo‘limganidek, jamiyatsiz ma’naviyat ham rivojlanishi mumkin emas. Jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalarida mavjud bo‘lgan muammolarini ma’naviyatni rivojlantirish, unga tayanish orqali hal etish mumkin.

Ma’naviyat millatni taraqqiyotga yetaklovchi, davlatning qudratini oshiruvchi muhim omil sanaladi. Chunki qayerda, qaysi mamlakatda ma’naviyat yuksak darajada bo‘lsa, o‘sha joyda, o‘sha mamlakatda johillik, hasadgo‘ylik, beparvolik, xudbinlik, yalqovlik, manmanlik, tekinxo‘rlik, g‘iybat qilishlik, ko‘rolmaslik, yovuzlik, tuhmat qilish kabi salbiy illatlar, ma’naviyatsizlik ko‘rinishlariga o‘rin qolmaydi.

Ma’naviyat har doim ma’rifat bilan uyg‘un holatda rivojlanib boradi.

## **Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish yo'llari**

Hozirgi kunda jahon siyosatida “mafkuraviy kurash” tobora avj olib borayotgan bir davrda yoshlarda “mafkuraviy immunitet”ini shakllantirish yo'llari dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Chunki O‘zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlab o’tganidek, “Mafkuraviy poligonlar bugungi kunda yadro poligonlaridan ham qudratliroqdir”. Darhaqiqat, har bir insonning shakllanishida, davlatning rivojlanishida g‘oya va mafkuralarning o‘rni beqiyosdir. Bunga misol tariqasida shuni ta’kidlash joizki, farzand dunyoga kelar ekan, oilada tarbiyalanadi, shu oila muhitida kamol topadi. Shuning uchun bolani ezgulik, buniyodkorlik, vatanparvarlik asosida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Kelajak avlodning “mafkuraviy immuniteti”ni shakllantirishda hozirgi davrda juda ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, bu yo‘lda ta’lim tizimining o‘rni nihoyatda kattadir. Har bir yosh avlodni mafkuraviy immunitetini shakllantirish uchun ham ularga ta’lim-tarbiya beruvchi ustozlarning, ota-onalarning, mahalla muhitining, xullas, jamiki vatanparvar insonlarning o‘zlarini g‘oyaviy, mafkuraviy tafakkurlari yuqori bo‘lishi talab etiladi. Bizga sir emas, so‘nggi davrlarda “Ommaviy madaniyat”, “Globallashuv”, “Globallashuv jarayonlari” va shunga o‘xshash tushunchalar tez-tez qulqqa chalinmoqda. Bu tushunchalarning mohiyatini, aniq mazmunini anglab yetish uchun, albatta, insonda g‘oyaviy, mafkuraviy tafakkur shakllangan bo‘lishi darkor.

XX asrning so‘nggi yillari, XXI asrning boshlarida mustamlakachilik siyosati tugatilganligi to‘g‘risida fikrlar bildirilmoqda, to‘g‘ri, qurol-yarog‘ bilan ochiqchasiga tahdid qilish, o‘zga davlat hududiga ochiqchasiga bosqinchilik uyushtirish to‘xtatilgan bo‘lsa-da, aksincha g‘oyaviy, mafkuraviy tahdid kundan-kun kuchayib avj olib bormoqda. Bu tahdidlardan himoya esa qurol-yarog‘, zamonaviy texnika emas, aksincha g‘oyaviy, mafkuraviy tafakkurdir. Bu yo‘lda yosh avlodni ma’naviyatli insonlar bo‘lib shakllanishida barchamiz birdek mas’ul bo‘lishimiz kerak.

Aholini, yoshlarni g‘oyaviy, mafkuraviy immunitetini kuchaytirish uchun nimalarga e’tibor berilishi kerak? Yosh avlodning mafkuraviy tafakkurini oshirish uchun maktablarda, ta’lim muassasalarida “Milliy istiqlol g‘oyasi”, “Ma’naviyat asoslari”, “Vatan tuyg‘usi”, “Odobnoma”

darslari o‘qitilmoqda. Bu darslar jarayonini shu fanlarning mutaxassislari o‘tishi, Prezident asarlaridan, siyosatchilarining fikrlaridan, dunyodagi yangiliklardan xabardor pedagoglar yuqoridagi manbalardan foydalaniib o‘quvchilarga bilim berishlari talab etiladi. Dars jarayonini oddiy ma’ruza tarzida emas, babs-munozarali, savol-javob tarzida o‘tishi, yangi ta’lim texnologiyalari bo‘lmish elektron darsliklardan, prezentatsiyalardan, ma’naviy-ma’rifiy videoroliklardan foydalanish muhimdir. Chunki o‘quvchi-talabaning ham berilayotgan bilimni bir xilda saqlab qolishi ancha mushkul.

Shuning uchun ularning bilimini yuksaltirishda videoroliklardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bizga ma’lum bir naqlni yodga olib qo‘yish zarur, ya’ni “Ming bora eshitgandan, bir bora ko‘rgan afzal”.

Yoshlarning mafkuraviy-g‘oyaviy immunitetini shakllantirishdagi yana bir muhim omil – bu ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning maktablarda, kollejlarda, mahalla dargohlarida ko‘plab tashkil etilishidir. Chunki bu tadbirlardan tomoshabinlar, o‘quvchilar anchagina mafkuraviy ozuqa oladilar. Bu yo‘lda barcha pedagoglar qatori jamiki fuqarolar bir tan-u bir jon bo‘lib, targ‘ibot-tashviqot ishlarini birdek olib borishlari zarur. Jamiyatimiz rivojlanishida, ravnaq topishida, rivojlangan davlatlar qatorida bo‘lishida bilimli, mafkurasi yuqori yoshlar alohida o‘ringa ega.

Biz har doim o‘zga xalqlar madaniyatiga qiziqib kelamiz. Internet, axborot rivojlangan bu davrda boshqa millatlarning madaniyatini o‘rganish qiyin vazifa emas. Bizdan shu narsa talab qilinadiki, kelajakdagi turmush tarzimizni G‘arb davlatlari singari emas, aksincha “Sharqona mentalitet” asosida qurishimiz zarurdir. Shundagina biz ma’naviyati yuksak, madaniyatni yuqori, eng rivojlangan O‘zbekiston davlatining asl farzandlari bo‘lib qolamiz.

## **Oliy ta’limning me’yoriy-huquqiy asosi sifatida qonun hujjatlari**

Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasida “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahririni qabul qilish hamda shu orqali sohada qonuniylikni ta’minlashning eng samarali mexanizmlarini yaratish, qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning qonunlarga, sotsial-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohotlar ehtiyojiga mos bo‘lishini ta’minlash zarurligi har tomonlama asoslab berilgan.

Ushbu Qonunning mazmun-mohiyatini, unga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni jamoatchilikka yetkazish, norma ijodkorligi faoliyatida vujudga keladigan muammolarga yechim topish, shu bo'yicha tegishli tavsiyalar ishlab chiqish masalalari alohida ahamiyatga ega. Yangi tahrirdagi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonun oldingisidan hajmi va mazmuni jihatidan ham tubdan farq qiladi. Unga nafaqat yangi moddalar kiritilgan, balki bugungi kun talablari asosida ko'plab qoidalar bilan to'ldirilgan. Ayni chog'da normativ-huquqiy hujjatlar loyihibarini ishlab chiqish jarayoniga bo'lgan talab kuchaytirildi. Xususan, normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlashda ishlab chiquvchiga qonun hujjatlarining holatini, ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini huquqiy jihatdan tartibga solishga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan nuqson hamda ziddiyatlarni aniqlash majburiyati yuklatilmoxda. Qonun ijodkorligi jarayonida ushbu hujjat 13 modda va qator normalar bilan to'ldirildi. Normativ-huquqiy hujjat loyihasi yuzasidan xalqaro hujjatlar va chet mamlakatlar qonun hujjatlarini puxta o'rganish orqali tahliliy hamda qiyosiy jadvallar va tegishli xalqaro tajribani O'zbekiston Respublikasi sharoitida qo'llash maqbulligi to'g'risidagi normalar shular jumlasidandir.

Normativ-huquqiy hujjatlarning turlari aniqlashtirildi. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, Oliy Majlis palatalari qarorlari, Prezident farmonlari, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining buyruqlari, qarorlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari normativ-huquqiy hujjatlar hisoblanadi.

Qonunda yana bir yangi jihat shundaki, unga normativ-huquqiy hujjatlar loyihibarini tayyorlashni rejorashtirish, tayyorlash tartibi va ularni ekspertizadan o'tkazishga bag'ishlangan alohida bob kiritildi. Unda normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qiluvchi organlar qonun hujjatlari normalarini takomillashtirish maqsadida bunday hujjat loyihibarini tayyorlashning rejalarini ishlab chiqishi hamda tasdiqlashi mumkinligi to'g'risidagi qoidalar o'z ifodasini topgan.

Umuman, normativ-huquqiy hujjatlarni uch asos – yuridik kuchi, amal qilish sohasi va ularni nashr etuvchi subyektlar bo'yicha tasniflash maqsadga muvofiq.

Yuridik kuchi bo'yicha oliy yuridik kuchga ega bo'lgan qonun hujjatlari hamda qonunlarga asoslangan va ularga zid kelmaydigan hujjatlar – qonunosti hujjatlari alohida ajratib ko'rsatiladi. Qonunlardan

tashqari, mutlaq barcha normativ hujjatlar qonunosti hujjatlari hisoblanadi.

Normativ-huquqiy hujjatlarni nashr etuvchi (qabul qiluvchi) subyektlar bo'yicha. Ular referendum, davlat hokimiyati organlari, Prezident, boshqaruv organlari, davlat va nodavlat tashkilotlari mansabdor shaxslarining hujjatlariga bo'linadi. Qonun hujjatlari – davlat hokimiyati va boshqaruvning yuqori organlari tomonidan nashr etilgan normativ-huquqiy hujjatlar yig'indisi, to'plamidir.

Shu o'rinda ko'pincha istisnosiz barcha normativ hujjatlar, shu jumladan, idoraviy hamda hokimiyat mahalliy organlari hujjatlarini ham qonun hujjatlariga aloqador deb hisoblashlarini qayd etib o'tish joiz.

"Qonun" so'zini ko'pincha davlat majburlov kuchi bilan ta'minlanadigan umummajburiy qoidani belgilash uchun qo'llashadi.

Biroq qat'iy yuridik ma'noda qonun alohida, faqat o'zigagina xos bo'lgan belgi-alomatlarga ega huquqiy hujjatdir.

Bu belgi-alomatlar nimalardan iborat?

Birinchidan, qonun davlat hokimiyati maxsus faoliyatining mahsuli sifatida yaratiladi. Shuning uchun ham qonun O'zbekiston oliy davlat vakillik organi – Oliy Majlis hujjati hisoblanadi. Butun aholi vakillari qabul qiladigan qonunlar eng ko'p darajada xalq manfaatlarini ifodalashi bois birlamchi mohiyatga ega hujjatlar bo'lib, qonunlarning butun tizimi uchun asos ekanligi shundan kelib chiqadi.

Ikkinchidan, qonunlar eng muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Qonunlar va, eng avvalo, Konstitutsiya vositasida konstitutsiyaviy tuzum asoslari, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari, davlat tuzilishi, davlat hokimiyati hamda boshqaruv funksiyalari va hokazolar mustahkamlanadi. Ta'lim va ijtimoiy hayotning boshqa muhim yo'naliishlari qonunlar bilan belgilanadi. Hozirgi vaqtida respublikamizda qonunning roli ortib bormoqda. Bu O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqlarida ko'p martalab ta'kidlangan. Jumladan, u shunday degandi: "Ulug' bobokalonimiz Amir Temur "Qayerda qonun hukmronlik qilsa, shu yerda erkinlik bo'ladi", – degan so'zlarni tarix sahifalariga zarhal harflar bilan yozdirgan edi.

Uchinchidan, qonunlar maxsus tartibda qabul qilingan hujjatlar bo'lib, oliy yuridik kuchga ega. Qonunlarni qabul qilish tartibi Konstitutsiya va oliy vakillik organlari reglamentlari bilan belgilanadi.

Qonunlarning oliy yuridik kuchi davlatdag'i boshqa barcha normativ hujjatlar qonunlar asosida, ularga muvofiq ravishda chiqarilishi va bu qonunlarga zid kelishi mumkin emasligida ifodalanadi. Konstitut-

siyamizda qonunlarning o‘ziga xos bu xususiyati maxsus ko‘rsatib o‘tilgan. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida shunday deyiladi: “O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarning ustunligi so‘zsiz tan olinadi.

Davlat, uning organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘radilar”.

Shunday qilib, qonun maxsus tartib asosida qonun chiqaruvchi hokimiyat organi tomonidan qabul qilinadigan, eng muhim ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladigan hamda oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatdir.

O‘zbekiston Respublikasida qabul qilinayotgan qonunlarni quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

Ahamiyati va yuridik kuchi bo‘yicha: konstitutsiyaviy, joriy va oddiy qonunlar turlari farqlanadi. Konstitutsiyaviy qonunlar davlat va jamiyat qurilishining tub asoslarini, shaxs va tashkilotlarning huquqiy maqomini belgilab beradi. Bular, shuningdek, amaldagi Konstitutsiyaga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kirituvchi qonunlardir. Konstitutsiyaviy qonunlar asosida normativ-huquqiy hujjatlar butun tizimi tarkib topadi va aniqlashtiriladi. Konstitutsiya boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, shu jumladan, qonunlarga nisbatan oliy yuridik kuchga ega.

Boshqa barcha qonunlar oddiy qonunlar bo‘lib, ular deputatlarning ko‘pchiligi ovoz bergan taqdirda qabul qilingan hisoblanadi.

Qonunlar yana tartibga solish ko‘لامи va obyekti bo‘yicha ham farqlanadi. Umumiylar qonunlar (masalan, kodekslar) ijtimoiy munosabatlarning butun bir sohasiga bag‘ishlanadi. Maxsus qonunlar (masalan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun) ijtimoiy munosabatlarning ancha tor doirasini tartibga solishga xizmat qiladi.

Normativ-huquqiy hujjatning amal qilishi undan ko‘zda tutilgan yuridik oqibatlar natijasidir. Normativ-huquqiy hujjatning amal qilishi, ya’ni uning «umri» uch mezon bilan: zamon, makon va shaxslar doirasi bilan belgilanadi.

A. Normativ-huquqiy hujjatning zamonda amal qilishi. U normativ-huquqiy hujjatning kuchga kirishning kuchga kirishning (amalga kiritilishining) quyidagi tartibi mavjud:

- 1) hujjatning kuchga kirish vaqtini ko‘pincha unga tegishli hujjatda – kuchga kiritish haqidagi qarorda ko‘rsatiladi;

- 2) normativ-huquqiy hujjat e'lon qilingan kundan kuchga kiradi;
- 3) normativ-huquqiy hujjat bosqichma-bosqich kuchga kiritiladi. Bunda mazkur bosqichlar yo muddatlar bilan yoki muayyan sharoitlarning yuzaga kelishi bilan bog'liq bo'ladi;
- 4) normativ-huquqiy hujjat qabul qilingan vaqtidan boshlab kuchga kiradi, bu haqda shu hujjatning o'zida, shuningdek, uni kuchga kiritish haqidagi qarorda aytlishi mumkin;
- 5) normativ-huquqiy hujjat imzolangan vaqtidan boshlab kuchga kiradi, bu haqda shu hujjatning o'zida aytilan bo'ladi. Mazkur tartib Prezident, Vazirlar Mahkamasi hujjatlari uchun xosdir. Masalan, Respublikamiz Prezidentining ko'pchilik farmonlari "Ushbu Farmon imzo qo'yilgan vaqtidan boshlab kuchga kiradi", degan band bilan yakunlanadi.

Normativ-huquqiy hujjat quyidagi tartibda o'z kuchini yo'qotadi: qabul qilingan muddati tugashi bilan; nazarda tutib qabul qilingan sharoit o'zgarganda (masalan, yangi Konstitutsiya 1992-yili qabul qilinishi bilan 1978-yilgi O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi o'z kuchini yo'qotdi); ushbu hujjatning boshqa bir hujjat bilan bekor qilinishi natijasida.

B. Normativ-huquqiy hujjatning makonda amal qilishi. Davlat suverenitetiga muvofiq normativ-huquqiy hujjatlari, mamlakatimiz havo bo'shlig'ini ham qo'shib hisoblaganda, uning butun hududida amal qiladi. Umuman, dengiz, daryo, havo va kosmik kemalar (stansiyalar) davlat hududiga tenglashtiriladi.

D. Normativ-huquqiy hujjatlarning shaxslar (shaxslar doirasi) bo'yicha amal qilishi. O'zbekiston Respublikasining umumiyl xususiyatga ega normativ-huquqiy hujjatlari respublikamizda istiqomat qiluvchi barcha shaxslar – davlatimiz fuqarolari, muhojirlar va fuqaroligi bo'limgan shaxslarga daxldordir.

Maxsus normativ-huquqiy hujjatlari faqat muayyan fuqarolarga nisbatangina amal qiladi. Masalan, harbiy qonunlar faqat harbiy xizmatchilargagina tegishlidir.

Ayni paytda davlatimiz normativ-huquqiy hujjatlari chet ellardagi fuqarolarimiz uchun ham amal qiladi. Chunonchi, chet elda jinoyat sodir qilgan O'zbekiston fuqarosi bizning qonunlarimiz bo'yicha javob beradi. Bu tamoyil fuqaro hozir bo'lgan mamlakat qonunlari oldida uning mas'uliyatini istisno etmaydi, albatta.

Diplomatik daxlsizlik huquqiga ega bo'lgan shaxslar O'zbekiston normativ-huquqiy hujjatlari amal qilish doirasiga kirmaydilar (va shunga

binoan yuridik javobgarlikka ham tortilmaydilar). Bular vakolatxonalar rahbarlari va vakolatxona diplomatik jamoasi a'zolari, xalqaro muzokaralar, uchrashuvlar va anjumanlar delegatsiyalari rahbarlari va a'zolaridir.

Bunday shaxslarning huquqiy maqomlari xalqaro huquq normalari bilan belgilanadi.

Ushbu Qonunning asosiy vazifalari normativ-huquqiy hujjatlar tushunchasini, turlarini, o'zaro nisbatini aniqlashdan, normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash tartibiga va ularning mazmuniga qo'yiladigan asosiy talablarni belgilashdan, shuningdek, ularning ijrosi tashkil etilishini ta'minlashdan iborat.

**1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyamiz** O'zbekiston tarixida uzoq, davomli maqsad va vazifalarimizni aniq belgilab berishda o'zining puxta o'yangan tamoyil va qoidalari bilan ishonchli va hal qiluvchi omil bo'ldi, deb ta'kidlashga barcha-barcha asoslарimiz bor. Hozirgi kunga qadar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga 7 marotaba o'zgartirishlar kiritilgan. Jumladan, O'zR 28.12.1993 y. 989-XII-son Qonuni, O'zR 24.04.2003 y. 470-II-son Qonuni, O'zR 11.04.2007 y. O'RQ-89-son Qonuni, O'zR 25.12.2008 y. O'RQ-194-son Qonuni, O'zR 18.04.2011 y. O'RQ-284-son Qonuni, O'zR 12.12.2011 y. O'RQ-305-son Qonuni, O'zR 16.04.2014 y. O'RQ-366-son Qonuni. 2014-yil 16-apreldagi oxirgi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar hokimiyat va boshqaruvin tizimini yanada demokratlashtirish, "**kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari**" prinsipini bosqichma-bosqich amalga oshirilishini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining davlat hokimiysi organlari tizimidagi rolini, ichki va tashqi siyosatning strategik vazifalarini amalga oshirishdagi huquq va vakolatlarini kengaytirish, Vazirlar Mahkamasi hamda ijro etuvchi organlar faoliyati ustidan qonun chiqaruvchi oliy organning, hokimiyat vakillik organlarining nazorat funksiyalarini kuchaytirish, shuningdek, hukumatning, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vazifalarini ro'yobga chiqarish borasidagi mas'uliyatini oshirish maqsadida kiritilgan. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32, 78, 93, 98, 103 va 117- moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Konstitutsiyamiz negiziga qo'yilgan talab va qoidalarga to'liq mos keladigan, dunyo hamjamiyatida "o'zbek modeli" deb nom qozongan,

mamlakatimizni isloh etish va modernizatsiya qilish yo‘li naqadar to‘g‘ri ekanini bugun hayotning o‘zi tasdiqlab bermoqda.

Ushbu modelning mazmun-mohiyati mashhur besh tamoyilda mujassam topgani barchamizga yaxshi ma’lum. Bu tamoyillar iqtisodiyotni mafkuradan xoli qilish, qonun ustuvorligini ta’minalash, davlatning bosh islohotchi sifatidagi boshqaruvchilik rolini tan olish, mamlakatimizning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, shuningdek, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishdan iborat ekani bilan alohida ajralib turadi<sup>2</sup>.

Ma’lumki, demokratik huquqiy davlat qurish yo‘lidagi eng dastlabki va eng muhim qadam Konstitutsiyani o‘rganish hamda uni hayotga tatbiq etishdan boshlanadi. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 4-yanvarda e’lon qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganishni tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoyishi ham demokratiya yo‘lida ulkan bir qadam qo‘yish uchun katta turtki bo‘ldi.

Mana shu maqsadda davlatimiz rahbari O‘zbekiston Konstitutsiyasini bolalar bog‘chasidan boshlab o‘rgatish, maktablarda darslik tariqasida o‘qitish hamda oliy o‘quv yurtlarida esa maxsus dars sifatida o‘rganishni vazifa qilib qo‘ydi.

O‘z yuridik tabiati va mohiyatiga ko‘ra Konstitutsiya boshqa normativ-huquqiy hujjatlardan **quyidagi muhim jihatlari** bilan ajralib turadi:

- birinchidan, Konstitutsiya maxsus subyekt tomonidan yoki uning nomidan o‘rnatalidi;
- ikkinchidan, Konstitutsiyaviy qoidalar ta’sis etuvchi, yo‘nal-tiruvchi, birlamchi ahamiyatga ega;
- uchinchidan, konstitutsiyaviy tartibga solish o‘z hajmining keng qamrovliliqi bilan tavsiflanadi, ya’ni u nihoyatda muhim va keng ko‘lamdagi ijtimoiy munosabatlar doirasiga ta’sir ko‘rsatadi;
- to‘rtinchidan, Konstitutsiya alohida yuridik xususiyatlarga, ya’ni ustuvorlikka, oliy yuridik kuchga, o‘ziga xos muhofaza shakliga, maxsus tarzda qabul qilinish va o‘zgartirilish tartibiga ega.

Konstitutsiyada joriy qonunlar chiqarilishi, davlat turli organlarining qonun yaratish sohasida ish olib borishi, huquqiy aktlar kim tomonidan, qanday tartibda va qanday doirada chiqarilishi, ularning mazmuni qanday prinsiplarga javob berishi lozimligi belgilanadi. Konstitutsiya normalari boshqa qonunlarga, normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan

<sup>2</sup>“Халқ сўзи”, 2013 йил 7 декабрь

eng yuqori yuridik kuchga egadir. Boshqa barcha normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiyaga to‘la muvofiq ravishda qabul qilinadi. Konstitutsiya qonunchilik tarmoqlarining shakllanishi va amal qilishi uchun zamin hisoblanadi. Konstitutsiyaning qoidalari hamisha rahbariy, dasturiy hamda yo‘naltiruvchi mavqega ega. Joriy qonunlar u yoki bu darajada konstitutsiyaviy qoidalarni rivojlantiradi hamda hayotga tatbiq etishga xizmat qiladi.

Konstitutsiyani jamiyat va davlat o‘rtasidagi o‘ziga xos bir ahslashuv deyishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ta’biri bilan aytganda, “Konstitutsiyada jamiki dunyoviy ne’matlar orasida eng ulug‘i inson degan fikrni ilgari surdiq va shu asosda “fuqaro-jamiyat-davlat” o‘rtasidagi o‘zaro munosabatning oqilona huquqiy yechimini topishga intildik”. Buni shunda ham ko‘rishimiz mumkinki, Konstitutsiyada 15 martaga yaqin “**kafolat**” so‘zi ishlatalgan bo‘lib, bu ham unda inson huquq va erkinliklari oliv qadriyat sifatida e’tirof etilganligidan dalolat beradi.

Jamiyat rivojlanib borgani sari odamlarning asosiy qonunga nisbatan ehtiyoji ortib boradi. Chunki asosiy qonun erkinlik kafolati hisoblanadi. Boshqacha aytganda, qonunga amal qilgan inson birovning manfaatiga zyon yetkazmay turib, o‘z maqsadiga erishadi. Shu bois har qanday munosabatda asosiy qomusga amal qilish muhim ahamiyatga ega.

**O‘zbekiston Konstitutsiyasini yaratishda jahon konstitutsiyaviy tajribasining quyidagi jihatlari o‘z ifodasini topdi:**

**birinchidan**, respublika boshqaruv shakli bevosita xalq boshqaruvi ning shakllaridan biri ekanligi;

**ikkinchidan**, konstitutsiyaviy tartibga solishning klassik prinsiplari – hokimiyat vakolatlarining bo‘linishi, inson huquqlari va xalqaro huquq normalariga sodiqlik, Konstitutsiyaning barqarorligi;

**uchinchidan**, Konstitutsiya matnnini muqaddima va bo‘limlar, boblar va moddalar bo‘yicha taqsimlash hamda ularni mantiqiy joylashtirish;

**to‘rtinchidan**, mazmunining qisqaligi, real davlat va ijtimoiy hayotni cheklab qo‘yadigan ortiqcha qoidalarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida Konstitutsiyada kelajakda qabul qilinadigan qonunlarga oid havolalar yo‘qligi ham shu maqsad bilan bog‘liq;

**beshinchidan**, mafkuralashtirishdan voz kechish, ya’ni bir mafkura hukmronligidan voz kechish; fikr, so‘z, vijdon va e’tiqod erkinligi;

**oltinchidan**, konstitutsiyaviy kafolatlar – Konstitutsiya ustuvorligi, Konstitutsiyaviy sud tuzilishi, Asosiy Qonunga o‘zgartish kiritishning alohida tartibi.

Avvalgi “ittifoq” konstitutsiyalaridan farqli ravishda mustaqil O‘zbekiston Respublikasining Asosiy Qonunida faqat Yevropaga xos konstitutsiyaviy tartibga solishning tazyiqi yo‘q. Lekin G‘arb mamlakatlarining demokratik konstitutsiyalariga xos bo‘lgan fuqarolik jamiyati, hokimiyat vakolatlarining bo‘linishi, muvozanat va o‘zaro cheklab turish tizimiga oid normalar inobatga olingan. Bu yerda islom dini ma’naviy an’analarining ta’siri seziladi, davlat katta oila kabi tushunilishi va rahbar ushbu oila har bir a’zosining tinchligi, qadri va farovonligi uchun ma’sulligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Asosiy Qonunimizning 41-moddasida: “Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta’lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir”, – deb belgilab qo‘yilgan.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 4-moddasi

**“Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi 29.08.1997 y. 464-I-son Qonuni bilan qabul qilingan.** // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 1997 y. 9-son, 225-modda // O‘zbekiston Respublikasining 07.10.2013 y. O‘RQ-355-son Qonuni bilan o‘zgartirishlar kiritilgan.

Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun fuqarolarga ta’lim, tarbiya berish, kasb-hunar o‘rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta’minalashga qaratilgan.

Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun hujjatlari ushbu Qonundan hamda boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida ta’lim to‘g‘risidagi Qonun hujjatlaridagidan o‘zgacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnomada qoidalari qo‘llaniladi.

Ta’lim O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e’lon qilinadi.

Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- 1) ta’lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- 2) ta’limning uzlucksizligi va izchilligi;
- 3) umumiy o‘rta, shuningdek, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining majburiyiligi;
- 4) o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o‘qishni tanlashning ixtiyoriligi;
- 5) ta’lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;

**6)** davlat ta’lim standartlari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi;

**7)** ta’lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;

**8)** bilimli bo‘lishni va iste’dodni rag‘batlantirish;

**9)** ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg‘unlashtirish.

Jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e’tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqeい, turar joyi, O‘zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat’i nazar, har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlanadi.

*Qarang: Konstitutsiyaning 18, 41-moddalari*

Bilim olish huquqi:

– davlat va nodavlat ta’lim muassasalarini rivojlantirish;

– ta’lim va kadrlar tayyorlash davlat dasturlari asosida bepul o‘qitish, shuningdek, ta’lim muassasalarida shartnoma asosida to‘lov evaziga kasb-hunar o‘rgatish;

– oilada yoki o‘zi mustaqil ravishda bilim olgan fuqarolarga akkreditatsiyadan o‘tgan ta’lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o‘tish huquqini berish orqali ta’minlanadi.

*Qarang: AV tomonidan 2015-yil 11-mayda 2670-son bilan ro‘yxatga olingan XTV Buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Eksternat to‘g‘risida”gi Nizom*

Respublikada istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar bilim olishda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega.

*Qarang: VM 2008-yil 4-avgustdagи 169-son Qarori bilan tasdiqlangan “Xorijiy fuqarolarni O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish va o‘qitish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom 6-bandи “a” kichik bandи; AV tomonidan 2009-yil 5-avgustda 1992-son bilan ro‘yxatga olingan, XTV Buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga xorijiy fuqarolar tomonidan o‘qishga kirishi uchun hujjatlarni taqdim etish va ularni ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnomasi*

Tegishli ma’lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega.

Ta’lim muassasasi **yuridik shaxs bo‘lib**, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tashkil etiladi. Nodavlat ta’lim muassasasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda davlat

akkreditatsiyasidan o‘tgan paytdan boshlab yuridik shaxs huquqlari va ta’lim faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi.

*Qarang: VM 2006-yil 10-fevraldagi 20-son Qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, 2015-yil 24-avgust o‘zgarishlar kiritildi.*

Ta’lim muassasasi attestatsiya natijalariga binoan davlat akkreditatsiyasidan mahrum etilishi mumkin.

*Qarang: VM 2006-yil 10-fevraldagi 21-son Qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalarini davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 24-band, 26-bandining to‘rtinchi, beshinchi xatboshlari, 31, 37-bandlari, 38-bandining to‘rtinchi-yettinchi xatboshlari*

Ta’lim muassasalari ustavda belgilangan vazifalariga muvofiq pulli ta’lim xizmatlari ko‘rsatish, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatining boshqa turlari bilan shug‘ullanishga haqli.

Davlat ta’lim standartlari umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim mazmuniga hamda sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi.

*Qarang: VM 1998-yil 5-yanvardagi 5-son Qapopi bilan tasdiqlangan “Davlat ta’lim standartlari to‘g‘risida”gi Nizom; VM 1999-yil 16-avgustdagi 390-son Qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’limning Davlat ta’lim standarti”; VM 2000-yil 16-oktabrdagi 400-son Qarori bilan tasdiqlangan “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining Davlat ta’lim standarti” hamda “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining umumta’lim fanlari Davlat ta’lim standarti”; VM 2001-yil 16-avgustdagi 343-son Qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar” hamda “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”*

Ta’lim berish tili til to‘g‘risidagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

*Qarang: “Davlat tili haqida”gi Qonunning 5, 6-moddalari*  
O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- davlat standartlariga muvofiq ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta’lim muassasalari;
- ta’lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek, ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar hisoblanadi.

*Qarang: “O‘zbekiston Respublikasi kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning 3.3.3.-bandi*

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

1. maktabgacha ta’lim;
2. umumi o‘rta ta’lim;
3. o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi;
4. oliy ta’lim;
5. oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim;
6. kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
7. maktabdan tashqari ta’lim.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta’lim sohasidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
- ta’limni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- ta’lim muassasalarini akkreditatsiyadan, pedagog, ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish tartibini belgilash;
- qonun hujjatlariga muvofiq xorijiy davlatlarning ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarini tan olish va hujjatlarning ekvivalent ekanligini qayd etish tartibini belgilash;
- davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma’lumot to‘g‘risidagi hujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash;
- davlat oliy ta’lim muassasasining rektorlarini tayinlash;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

Ta’limni boshqarish bo‘yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlarining huquq doirasiga quyidagilar kiradi:

- ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslub masalalarida ularga rahbarlik qilish;
- o‘qitishning ilg‘or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta’limning texnik va axborot vositalarini o‘quv jarayoniga joriy etish;
- ta’lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta’lim muassasalarida eksternat to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash;
- pedagog xodimlarni tayyorlashni, ularning malakasini oshirishni va qayta tayyorlashni tashkil etish.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ta’lim sohasidagi vakolatlari:

- ta’lim muassasalari faoliyatining mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ehtiyojlariga muvofiqligini ta’minlaydilar;

- o‘z hududlaridagi ta’lim muassasalarini vakolat doirasida moliyalash miqdorlarini va imtiyozlarni belgilaydilar;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradilar.

**“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi** O‘zbekiston Respublikasi 29.08.1997 y. 463-I-son Qonuni bilan qabul qilingan. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 1997 y. 11-12-son, 295-modda // O‘zbekiston Respublikasi 09.04.2007 y. O‘RQ-87-son Qonuni, 07.10.2013 y. O‘RQ-355-son Qonuni bilan o‘zgartirishlar kiritilgan // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari Axborotnomasi 2007 y. 4-son, 160-modda

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan bo‘lib, milliy tajribaning tahlili va ta’lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo‘ljalni to‘g‘ri ola bilish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo‘naltirilgandir.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o‘ziga xos yo‘lini tanlashni, kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo‘ydi va qator chora-tadbirlar ko‘rishni: «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunni joriy etishni; yangi o‘quv rejalarini, dasturlarini, darsliklarini joriy etishni, zamonaviy didaktik ta’minotni ishlab chiqishni; o‘quv yurtlarini attestatsiyadan o‘tkazishni va akkreditatsiyalashni, yangi tipdagisi ta’lim muassasalarini tashkil etishni taqozo etdi.

Yangi tipdagisi maktablar va umumta’lim o‘quv yurtlari tarmog‘i rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda ko‘plab litsey va gimnaziyalar ishlab turibdi. «Sog‘lom avlod uchun», “Ma’naviyat va ma’rifat”, “Iqtisodiy ta’lim”, “Qishloq maktabi”, “Rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni tiklash” va boshqa tarmoq dasturlari ro‘yobga chiqarilmoqda.

Maqsadni ro‘yobga chiqarish quyidagi vazifalar hal etilishini nazarda tutadi:

- Qonunga muvofiq ta’lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta’lim muassasalari hamda ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta’lim tizimini yagona o‘quv ilmiy ishlab chiqarish majmui sifatida izchil rivojlantirishni ta’minlash;

- kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarish;
- ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;
- yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko'rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta'minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;
- uzlusiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mablag'lar, shu jumladan, chet el investitsiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

Milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich ro'yobga chiqariladi:

- Birinchi bosqich (1997-2001 yillar) mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish;
- “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunga muvofiq ta'lim tizimi mazmunini tarkibiy qayta qurish va tubdan yangilash;
- ta'lim oluvchilarning yuksak tayyorgarlilik darajasi, malakasi, madaniy va ma'naviy-axloqiy saviyasining sifatiga nisbatan qo'yiladigan zarur talablarni belgilab beruvchi davlat ta'lim standartlarini yaratish va joriy etish;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uchun zarur moddiy-texnika, o'quv-uslubiy va kadrlar bazasini tayyorlash;
- ta'lim muassasalari faoliyatiga baho berishning reyting tizimini, kadrlar tayyorlash sifati va ularga bo'lgan ehtiyojning monitoringini olib borish tizimini ishlab chiqish va joriy etish;

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro'yobga chiqarishning monitoringini olib borish.

Birinchi bosqich bajarilishining monitoringi asosida Milliy dasturni ro'yobga chiqarish yo'nalishlariga aniqliklar kiritiladi.

Majburiy umumiyl o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga, shuningdek, o'quvchilarning qobiliyatları va imkoniyatlariga qarab, tabaqlashtirilgan ta'limga o'tish to'liq amalgalashiriladi.

Ta'lim muassasalarining moddiy-texnika va axborot bazasini mustahkamlash davom ettiriladi, o'quv-tarbiya jarayoni yuqori sifatli

o‘quv adabiyotlari va ilg‘or pedagogik texnologiyalar bilan ta’minlanadi. Uzluksiz ta’lim tizimini axborotlashtirish amalga oshiriladi.

Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar) to‘plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

Milliy (elita) oliy ta’lim muassasalarini qaror toptirish va rivojlantirish amalga oshiriladi. Kasb-hunar ta’limi muassasalarining mustaqil faoliyat yuritishi va o‘zini o‘zi boshqarishi shakllari mustahkamlanadi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:

– Shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

– uzluksiz ta’lim malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlarini, davlat ta’lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi;

– ishlab chiqarish kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo‘yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnika jihatidan ta’minlash jarayonining qatnashchisi.

O‘zbekiston Respublikasi tomonidan inson huquqlari, ta’lim, bola huquqi sohasidagi shartnomalar va konvensiyalarning bajarilishi, kadrlar tayyorlash sohasida jahon ilg‘or tajribasini hisobga olish uzluksiz ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining barcha jihatlariga daxldor bo‘lib, uning rivojlanishi omillaridan biridir.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan uzluksiz ta’lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs, fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu tarzda fuqaroning eng asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bilim olish, ijodiy qobiliyatni namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanish, kasbi bo‘yicha mehnat qilish huquqi ro‘yobga chiqariladi.

Qonun umumiyl o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi standartlari orqali sifatli ta’lim olish, shuningdek, ta’lim va kasb-hunar jihatdan tayyorgarlikning shakllari va turlarini tanlashni, uzluksiz malaka oshirib

borish, zarurat taqozo etsa, tegishli qayta tayyorgarlikdan o‘tish huquqini va keng imkoniyatlarini nazarda tutadi.

Shaxs ta’lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta’lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko‘rsatish sohasida faoliyat ko‘rsatadi va o‘z bilimi va tajribasini o‘rgatishda ishtirok etadi.

Davlat va jamiyat kadrlar tayyorlash tizimi amal qilishi va rivojlanishining kafillari, yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash bo‘yicha ta’lim muassasalarining faoliyatini uyg‘unlashtiruvchi sifatida faoliyat ko‘rsatadi.

Fuqarolarning bilim olish, kasb tanlash va o‘z malakasini oshirish huquqlari ro‘yobga chiqarilishiga;

Davlat grantlari yoki pullik-shartnomaviy asosda oliy ta’lim va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim olish huquqiga;

Ta’lim oluvchilarning o‘qishi, turmushi va dam olishi uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi vazifalar hal etilishida jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga;

Sog‘liq va rivojlanishda nuqsoni bo‘lgan shaxslar ta’lim olishiga kafolat beradilar.

Uzluksiz ta’lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir.

Uzluksiz ta’limning faoliyat ko‘rsatish prinsiplari quyidagilardan iborat:

– ta’limning ustuvorligi uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta’lim va yuksak intellektning nufuzi;

– ta’limning insonparvarlashuvi inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta’limga nisbatan bo‘lgan turli-tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta’milanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o‘zaro munosabatlarining uyg‘unlashuvi;

– ta’limning milliy yo‘naltirilganligi, ta’limning milliy tarix, xalq an’analari va urf-odatlari bilan uzviy uyg‘unligi, O‘zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta’limni milliy taraqqiyotning o‘ta muhim omili sifatida e’tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash; iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta’limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

Uzluksiz ta’lim sohasidagi islohotlar quyidagilarni nazarda tutadi:

- davlat va nodavlat ta’lim muassasalarining har xil turlarini rivojlantirish; majburiy umumiyligi o‘rtalimdan o‘rtal maxsus, kasbhunar ta’limiga o‘tilishini ta’minlash; ilg‘or texnologiyalarni keng o‘zlashtirish, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar, chet el investitsiyalari ko‘lamlarining kengayishi, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesni rivojlantirish bilan bog‘liq yangi kasb-hunar va mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar, shu jumladan, boshqaruv tizimi kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- ta’limni boshqarish tizimini takomillashtirish, jamoat boshqaruvi shakllarini rivojlantirish, ta’lim muassasalarini mintaqalashtirish;
- ta’lim jarayoni va kadrlar tayyorlash sifatiga xolis baho berish tizimini yaratish va joriy etish;
- uzlusiz ta’limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashtirishning puxta mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy etish;
- tub yerli millatga mansub bo‘lmagan shaxslar zinch yashaydigan joylarda ular o‘z ona tillarida ta’lim olishlari uchun tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlar yaratish.

## **Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari**

- 1) Ta’limning uzlusizligini ta’minlash;
- 2) Pedagog va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- 3) Ta’lim jarayonini mazmunan isloh qilish;
- 4) Ma’naviy-axloqiy tarbiya va ma’rifiy ishlar;
- 5) Iqtidorli bolalar va iste’dodli yoshlar;
- 6) Ta’lim tizimini boshqarish;
- 7) Kasb-hunar ta’limi sifatini nazorat qilish tizimini shakllantirish;
- 8) Ta’lim tizimini moliyalash;
- 9) Moddiy-texnika ta’minoti;
- 10) Ta’lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish;
- 11) Ta’lim xizmati ko‘rsatish bozorini rivojlantirish;
- 12) Ta’lim sohasida ijtimoiy kafolatlarni ta’minlash hamda bu sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash;
- 13) Fan bilan ta’lim jarayoni aloqalarini rivojlantirish;
- 14) Ishlab chiqarish va ta’lim tizimi integratsiyalashuvini rivojlantirish;
- 15) Ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasidagi xalqaro hamkorlik.

1. “Oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilar tarkibining o‘quv, ilmiy-metodik, ilmiy-tadqiqot, tashkiliy metodik, ma’naviy axloqiy va tarbiyaviy ishlar yuklamasini aniqlash qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining buyrug‘i 19.10.2015 yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 2720, kuchga kirish sanasi 26.10.2015.O‘R QHT, 2015 y., 42-son.

2. **O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami**, 2015 y., 33-son.

3. **O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami**, 2015 y., 42-son.

4. **Oliy ta’lim. Me’yoriy-huquqiy hujjatlar to‘plami(II)**: B.Yu.Xodiev tahriri ostida shakllantirildi; Tuzuvchilar: I.Majidov, B.Raximov, R.Musurmonov, S.Buzrukxonov, B.Rajabov, R.Rajabboev, H.Nazarov, SH.Avezov, B.Qodirov.-T.: “Tafkkur-Boston”, 2013/ 576 b.

5. **Oliy ta’lim. Me’yoriy-huquqiy hujjatlar to‘plami(II)**: B.Yu.Xodiev tahriri ostida shakllantirildi; Tuzuvchilar: I.Majidov, B.Raximov, R.Musurmonov, S.Buzrukxonov, B.Rajabov, R.Rajabboev, H.Nazarov, SH.Avezov, B.Qodirov.-T.: “Tafkkur-Boston”, 2013/ 512 b.

6. **“Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘srimchalarni kiritish haqida”** O‘zbekiston Respublikasining 24.12.2012 y. O‘RQ-342-son Qonuni // Birinchi marta “Xalq so‘zi” ro‘znomasida 2012 yil 25 dekabrda nashr etilgan, rasmiy nashr etilgan kundan so‘ng kuchga kirgan // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2012 y. 12-son, 333-modda.

7. **O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi**. 08.12.1992 y. qabul qilingan // O‘zbekiston Respublikasi 28.12.1993 y. 989-XII-son Qonuni, 24.04.2003 y. 470-II-son Qonuni bilan o‘zgartirishlar kiritilgan // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengash Axborotnomasi 1994 y. 1-son, 5-modda // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2003 y. 3-4-son, 27-modda // 25.12.2008 y. O‘RQ-194-son Qonuni, 18.04.2011 y. O‘RQ-284-son Qonuni, 12.12.2011 y. O‘RQ-305-son Qonuni, 16.04.2014 y. O‘RQ-366-son Qonuni bilan o‘zgartirishlar kiritilgan // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Palatalarining Axborotnomasi 2008 y. 12-son, 637-modda, 2011 y. 4-son, 100-modda.

8. **“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi** 29.08.1997 y. 463-I-son Qonuni bilan qabul qilingan. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 1997 y. 11-12-

son, 295-modda // O‘zbekiston Respublikasi 09.04.2007 y. O‘RQ-87-son Qonuni, 07.10.2013 y. O‘RQ-355-son Qonuni bilan o‘zgartirishlar kiritilgan // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalari Axborotnomasi 2007 y. 4-son, 160-modda.

9. “**Ta’lim to‘g‘risida**”gi O‘zbekiston Respublikasi 29.08.1997 y. 464-I-son Qonuni bilan qabul qilingan. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 1997 y. 9-son, 225-modda // O‘zbekiston Respublikasining 07.10.2013 y. O‘RQ-355-son Qonuni bilan o‘zgartirishlar kiritilgan.

10. “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi Qonuni (Yangi tahriri) O‘zbekiston Respublikasi 29.08.2003 y. 524-II-son Qonuni bilan qabul qilingan. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2003 y. 9-10-son, 138-modda // O‘zbekiston Respublikasi 25.12.2008 y. O‘RQ-194-son Qonuni bilan o‘zgartirishlar kiritilgan // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis palatalarining Axborotnomasi 2008 y. 12-son, 637-modda (Hujjatning eski tahririga qarang).

11. VM 2004 yil 20 iyuldagи 341-son Qarori bilan tasdiqlangan “**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi to‘g‘risida**”gi Nizomning 8-bandи “O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2004 yil, 29-son, 332-modda.

12. “**Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida**”gi O‘zbekiston Respublikasi 02.09.1993 y. 913-XII-sonli Qonuni bilan qabul qilingan. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengash Axborotnomasi 1993 y. 9-son, 320-modda // O‘zbekiston Respublikasi 30.08.1997 y. 485-I-son Qonuni, 25.12.1998 y. 729-I-son Qonuni, 03.12.2004 y. 714-II-son Qonuni, 31.12.2005 y. O‘RQ-19-son Qonuni, 20.09.2007 y. O‘RQ-113-son Qonuni, 31.12.2008 y. O‘RQ-197-son Qonuni, 27.12.2013 y. O‘RQ-361-son Qonuni, 16.04.2014 y. O‘RQ-367-son Qonuni, 14.05.2014 y. O‘RQ-372-son Qonuni bilan o‘zgartirishlar kiritilgan // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 1997 y. 9-son, 241-modda, 1999 y. 1-son, 20-modda, 2005 y. 1-son, 18-modda, 2005 y. 12-son, 418-modda, 2007 y. 9-son, 420-modda, 2008 y. 12-son, 640-modda, 2013 y.

13. Topildiev V.R. Ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning me’yoriy huquqiy asoslari.-T.: “O‘zMU nashriyoti” 2015.

## **Ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning qonunosti normativ-huquqiy hujjatlari**

Ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar haqida so‘z ketganda, qonunosti normativ-huquqiy hujjatlar o‘zi nima eganligini ta’kidlash lozim. O‘zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunda rasman mustahkamlab qo‘yilganidek, O‘zbekiston Respublikasida barcha qonunchilik hujjatlari ikki xil ko‘rinishda namoyon bo‘ladi:

- 1) Qonunlar
- 2) Qonunosti hujjatlari

O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarining ikkinchi turi – **bu qonunosti hujjatlaridir.** Qonun asosida tashkil etilgan hamda unga zid bo‘lmagan vakolatli organlarning huquq ijodkorligi hujjatlari qonunosti hujjatlari hisoblanadi.

Qonunosti hujjatlari tushunchasi ularning hammasi uchun umumiyligiga xosdir. Shuning uchun normativ farmoniyishlarni qabul qiluvchi (chiqaruvchi) organlarga bog‘liq ravishda qonunosti hujjatlarining quyidagi turlarini ajratib ko‘rsatish odatga aylangan.

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari** O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari asosida hamda ularni ijro etish uchun **qarorlar** tarzida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

**O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti** O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari asosida hamda ularni ijro etish uchun **farmonlar, qarorlar va farmoyishlar** tarzida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi** O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qarorlar tarzida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

**Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar** o‘z vakolati doirasida **buyruqlar hamda qarorlar** tarzida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

qarorlari va farmoyishlari asosida hamda ularni ijro etish uchun qabul qilinadi.

**Buyruqlar** vazirlar tomonidan yoki idora nomidan qarorlar qabul qilish yakka tartibda amalga oshiriladigan idoralar rahbarlari tomonidan qabul qilinadi.

**Qarorlar** davlat qo‘mitalari tomonidan yoki idora nomidan qarorlar qabul qilishni mazkur idoraning kollegial organi amalga oshiradigan idoralar tomonidan qabul qilinadi.

Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari boshqa vazirliklar, davlat qo‘mitalari yoki idoralar bilan kelishilgan holda qabul qilinishi mumkin.

Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar tomonidan qo‘shma qarorlar tarzida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi mumkin.

Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning tarkibiy bo‘linmalari hamda hududiy organlari normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilishga haqli emas.

Demak, yuqoridaq ko‘rsatilgan davlat hokimiyati organlari ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning qonunosti normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish huquqiga ega hisoblanadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Maktab ta’limini rivojlantirishning umummilliy davlat dasturini muvaffaqiyatli amalga oshirish natijasida ta’lim jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi, zamonaviy o‘quv-laboratoriya uskunalari va kompyuter texnikasi bilan jihozlangan umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar, oliy ta’lim muassasalaridan iborat, yuqori talablarga javob beruvchi uzlucksiz ta’limning yaxlit tizimi yaratilganligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Shuningdek, zamonaviy xalqaro standartlarga javob beradigan oliy ta’limning ikki bosqichli tizimi – bakalavriat va magistratura yaratildi. Stajyor-tadqiqotchi-izlanuvchilar va katta ilmiy xodim-izlanuvchilar institatlari joriy qilindi, ularni moddiy rag‘batlantirish sharoitlari sezilarli darajada yaxshilandi.

Shuning bilan birga amaldagi oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimini Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida amalga oshirilayotgan ta’lim tizimidagi o‘zgarishlarning mantiqiy davomi sifatida tubdan isloh qilishning obyektiv zaruriyati bugungi kunda yaqqol namoyon bo‘layotganligi ko‘rsatildi.

Nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilish va fan nomzodi ilmiy darajasini tasdiqlovchi diplomni olish ko‘p hollarda fan va ilmiy-

texnikaviy rivojlanish manfaatlaridan yiroq birdan bir maqsad bo‘lib qolgan hamda dissertatsiyani tayyorlash va himoya qilishning turli bosqichlarida suiste’molchilik holatlariga olib kelmoqda.

Bugungi kunda amal qilayotgan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish tizimi ta’lim jarayoni bakalavriat va magistratura standartlariga o‘tkazilgandan so‘ng nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilish mohiyatan ortiqcha ekanligini ko‘rsatmoqda hamda fan doktori ilmiy darajasini olish uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri dissertatsiyani himoya qilishni nazarda tutuvchi oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limning bir bosqichli tizimini joriy qilish zarurligini taqozo etmoqda.

Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining ustuvor vazifalarini va mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va demokratik islohotlarni, ilg‘or jahon tajribasi va ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazishning xalqaro standartlarini hisobga olgan holda oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini tubdan isloh qilish, shuningdek, dissertatsiya tadqiqotlarining sifatini, ilmiy va amaliy ahamiyatini oshirish, yoshlarning ijodiy va intellektual salohiyatini namoyon etishiga sharoitlar yaratish maqsadida quyidagilar belgilandi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (keyingi o‘rinlarda - OAK), Fanlar akademiyasi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, tasarrufida oliy ta’lim va ilmiytadqiqot muassasalari mavjud bo‘lgan boshqa vazirlik va idoralarning 2013-yilning 1-yanvaridan boshlab:

– umum qabul qilingan xalqaro talablar va standartlarga muvofiq dissertatsiya himoya qilish va fan doktori ilmiy darajasini berish bo‘yicha oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limning bir bosqichli tizimini joriy qilish;

– stajyor-tadqiqotchi-izlanuvchilar institutini bekor qilish, unda ta’lim olayotgan shaxslarni oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimining yangi talablariga muvofiq ularni attestatsiyadan o‘tkazish va dissertatsiya tadqiqotlari mavzularini tanqidiy qayta ko‘rib chiqish asosida katta ilmiy xodim-izlanuvchilar institutiga o‘tkazish to‘g‘risidagi takliflarni qabul qilish.

2. Quyidagilar belgilab qo‘yildi:

– fan doktori ilmiy darjasini “magistr” darjasini bilan oliy ma’lumotga ega bo‘lgan, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar institutida ilmiy izlanishlar

natijalariga ko‘ra doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan shaxslarga tegishli fan yo‘nalishi bo‘yicha fan doktori ilmiy darajasini beruvchi ilmiy kengashlar tomonidan berilishi;

– katta ilmiy xodim-izlanuvchilar institutiga “magistr” darajasi bo‘lgan, ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyat stajiga (2 yildan kam bo‘lмаган), shuningdek, fan nomzodi ilmiy darajasiga ega bo‘lgan, fan doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tadqiqoti asos bo‘lishi mumkin bo‘lgan, ma’lum bir ilmiy natijalarni qo‘lga kiritgan (ilmiy maqolalar nashr etish, ilmiy anjumanlar, seminarlar va davra suhbatlariда ishtirok etish va boshqalar) shaxslarning qabul qilinishi;

– o‘rnatilgan tartibda mustaqil tadqiqotchi sifatida rasmiylashtirilgan, “bakalavr” yoki “magistr” darajasi bilan oliv ma’lumotga, 5 yildan kam bo‘lмаган amaliy ish stajiga ega bo‘lgan, ilmiy izlanishlarga layoqati mavjud, belgilangan talablarga mos keladigan ma’lum bir ilmiy yutuqlarga (ixtiro uchun patentlar, ilmiy maqolalar, ilmiy-texnologik ishlamalarda qatnashish va boshqalar) ega bo‘lgan shaxslarga ham doktorlik dissertatsiyasini himoya qilishga ruxsat berilishi.

3. Amalda mavjud bo‘lgan normativ hujjatlar talablariga muvofiq ilmiy darajalar berish bo‘yicha mavjud ixtisoslashgan kengashlarga 2012-yilning oxiriga qadar 2012-yil 1-iyulgacha OAK veb-saytida dissertatsiya ishlari himoyalari haqida e’lon qilingan tadqiqotchilarga fan nomzodi va fan doktori ilmiy darajalarini berish bo‘yicha ishlarni ko‘rib chiqishga ruxsat berilishi.

#### 4. Quyidagilar:

– fan nomzodi ilmiy darajasiga ega bo‘lgan barcha shaxslar uchun tegishli imtiyozlar va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq o‘rnatilgan moliyaviy to‘lovlar miqdori;

– professor, dotsent va katta ilmiy xodim ilmiy unvonlarini berish saqlab qolishi.

Bunda, attestatsiya ishlarini ko‘rib chiqish uchun 2012-yilning 1-iyuligacha OAKga taqdim etgan shaxslarga ilmiy unvonlar amalda mavjud bo‘lgan huquqiy-me’yoriy hujjatlar talablariga muvofiq berilishi belgilab qo‘yildi.

Mavjud ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko‘tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo etish, kelajak uchun barkamol, salohiyatli avlodni tarbiyalash maqsadida, **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.10.1997 y. PF-1869-son "Ta’lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish**

**to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. Unga ko‘ra,** "Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va Kadrlar tayyorlash bo‘yicha milliy dasturni hayotga tatbiq etish ishlari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi deb hisoblandi va Respublikada ta’lim-tarbiya tizimini tubdan o‘zgartirish yo‘lida olib borilayotgan islohotlarni amalga oshirish va bu borada qabul qilingan hujjatlar mohiyatini keng jamoatchilik tomonidan chuqr anglab olinishiga har tomonlama sharoit yaratish – davlat boshqaruvi, huquqni muhofaza qilish idoralari, ta’lim-tarbiya muassasalarini xodimlarining eng dolzarb vazifalari etib belgilandi.

Kadrlar tayyorlash bo‘yicha milliy dasturni amalga oshirish Respublika komissiyasi tuzilgan. Quyidagilar Komissiyaning asosiy vazifalari etib belgilandi:

- "Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunni amalga oshirish ishlarini muvofiqlashtirish, ta’lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash sohasida davlat siyosati tamoyillarini hayotga tatbiq etish;
- respublika vazirliklari, idoralari va muassasalarini hamda mulkchilik shaklidan qat’i nazar barcha tashkilotlarning ta’lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini isloh etish bilan bog‘liq faoliyatini muvofiqlashtirish;
- kadrlar tayyorlash tizimi huquqiy-me’oriy asosini Milliy dastur talablariga mos ravishda qayta ko‘rib chiqishni tashkil qilish;
- uzluksiz ta’limning barcha bosqichlari uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish, tasdiqlash va amaliyotga tatbiq etishni ta’minlash;
- uzluksiz ta’lim tizimining Milliy modelini amalga oshirishni ta’minlash;
- kadrlarga bo‘lgan talab va taklifni o‘rganish asosida ta’lim tizimining istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash;
- uch yillik akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari, oliy ta’lim muassasalarini tizimini Milliy dastur talablari asosida tashkil etish va takomillashtirish bo‘yicha takliflar kiritish;
- xalqaro donorlar, xorijiy investorlar, jamg‘arma va jamoat tashkilotlarining mablag‘larini jalb etish va ulardan unumli foydalanishga sharoit yaratish;
- Kadrlar tayyorlash milliy dasturining monitoringini olib borish;
- Milliy dasturning bajarilishi haqida ommaviy axborot vositalari orqali muntazam ma’lumot berib borishni tashkil etish.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga mazkur Farmonda belgilangan vazifalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilish vazifasi yuklatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2015-yil 12-iyundagi PF-4732-son Farmonini bajarish yuzasidan hamda oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy darajasini uzlucksiz takomillashtirish uchun shart-sharoitlarni ta’minlash maqsadida 2015-yil 20-avgustda 242-sonli **O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahakamasi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi** qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra, Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslari to‘g‘risidagi nizom, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, attestatsiyadan o‘tkazish jarayonlarini tashkil etish ishlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha Idoralararo komissiya tarkibi, bazaviy oliy ta’lim muassasalarining o‘quv-metodik va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni o‘qitishning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnikalari va texnik vositalari bilan ta’minlash bo‘yicha tadbirlar kompleksi tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, tasarrufida oliy ta’lim muassasalari bo‘lgan vazirliklar va idoralar Moliya vazirligi bilan birgalikda bir oy muddatda oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish yuzasidan to‘laqonli faoliyat yuritishini tashkil etish bo‘yicha zarur tashkiliy chora-tadbirlarni ko‘rish belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziriga oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslariga mashg‘ulotlar o‘tkazish uchun soatbay ish haqi to‘lash shartlari bilan jalg etiladigan ayrim yuqori malakali ilmiy-pedagogik kadrlarga va tajribali amaliyotchi mutaxassislarga o‘quv mashg‘ulotlari o‘tkazganligi uchun soatbay ish haqi miqdorini belgilangan miqdorlaridan 50 foiz yuqori etib belgilash huquqi berildi. Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarining ishlarini samarali tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlarni va har tomonlama yordam berilishini ta’minlashi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10.02.2006 y. 20-son "Oliy ta'lif muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori (O'zbekiston Respublikasi QT, 2006 y., 2-son, 8-modda) bilan tasdiqlangan Oliy ta'lif muassasalariga pedagog-xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi (Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 25-avgustdagi 246-son qarori). Unga ko'ra Kafedra mudiri lavozimini egallah uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi ilmiy darajasiga, professor yoki dotsent ilmiy unvoniga, shuningdek, tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (Ph.D) ilmiy darajasiga yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo'lgan shaxs ishtirok etishi mumkin.

Dotsent (fan nomzodi, tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (Ph.D) yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalari) kafedra mudiri lavozimini egallahga bir besh yillik muddatga qo'yiladi.

Bir muddat tamom bo'lgandan keyin kafedra mudiri lavozimini egallab turgan va fan doktori ilmiy darajasini olmagan dotsent (fan nomzodi, tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (Ph.D) yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalari) faqat istisno hollarda oliy ta'lif muassasasi rektorining taqdimnomasiga binoan va bo'ysunishi bo'yicha tegishli vazirlik yoki idoraning ruxsati bilan kafedra mudiri lavozimini egallah uchun tanlovda yana ishtirok etishi mumkin.

Fan nomzodi, tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (Ph.D) yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan aynan bir shaxsning kafedra mudiri lavozimiga tanlovda ketma-ket uchinchi muddatga ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi.

Tillar, jismoniy tarbiya va sport, grafika va chizmachilik, madaniyat va san'at yo'nalishlari kafedrasi mudiri lavozimini egallah uchun tanlovda ishtirok etishga dotsent ilmiy unvoniga (fan nomzodi, tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (Ph.D) yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga) ega bo'lмаган, бироқ камида 5 ўй методик, илмиy-pedagogik, ijodiy va tashkiliy faoliyat tajribasiga ega bo'lgan shaxs qo'yilishi mumkin.

Professor lavozimini egallah uchun tanlovda qoidaga ko'ra professor ilmiy unvoniga yoki fan doktori ilmiy darajasiga, shuningdek,

tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo'lgan shaxs ishtirot etishi mumkin.

Professor lavozimini egallash uchun tanlovda fan nomzodi ilmiy darajasiga yoki tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan shaxs kamida 5 yil ilmiy-pedagogik ish stajiga ega bo'lish, ushbu kafedraning ta'lim yo'naliishlari bo'yicha darsliklar va o'quv qo'llanmalari muallifi bo'lish sharti bilan bir muddatga ishtirot etishi mumkin.

**Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti** asosiy qoidalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 16-avgustdagagi 343-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Mazkur Standartga quyidagilarga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan (O'zR VM 10.07.2013 y. 199-son Qarori, O'zR VM 10.01.2015 y. 3-son Qarori).

Mazkur standart "Ta'lim to'g'risida", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga yetkazish to'g'risida" 1997-yil 6-oktabrdagi PF-1869-son va "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi to'g'risida" 1998-yil 10-noyabrdagi PF-2107-son Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida" 1998-yil 5-yanvardagi 5-son, "Davlat test markazi tarkibida Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagog kadrlar va ta'lim muassasalari attestatsiyasi boshqarmasini tashkil etish to'g'risida" 1998-yil 11-martdagagi 109-son, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi 2004-yil 24-iyundagi 293-son qarorlari va oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan.

**Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti:**

- kadrlar tayyorlash sifatiga, ta'lim mazmuniga qo'yiladigan umumiyl talablarni;
- ta'lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va yetarli bilim darajasi hamda oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilariga qo'yiladigan umumiyl malakaviy talablarni;

- o‘quv yuklamasining hajmini;
- ta’lim muassasalari faoliyati va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartibotlari hamda mexanizmini belgilaydi.

OT DTS o‘quv jarayonini, ta’lim muassasalari faoliyatini, kadrlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalari tayyorlash sifatini baholashni tartibga soluvchi tegishli normativ hujjatlar (ta’lim sohalarining davlat ta’lim standartlari, bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun malaka talablari, o‘quv rejalar, o‘quv fanlari dasturlari va boshqalar) yaratish uchun asos hisoblanadi.

OT DTS oliv ma’lumotli kadrlar tayyorlashda idoraviy bo‘ysunishi va mulkchilik shakllaridan qat’i nazar O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan barcha ta’lim muassasalari uchun majburiydir.

OT DTSga Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bosqichlarini amalgaga oshirish jarayonida, shuningdek mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining istiqbollari, jamiyat ehtiyoji, fan, texnika, texnologiya va madaniyat yutuqlari, kadrlar tayyorlash borasida jahon tendensiyalaridan kelib chiqqan holda tuzatishlar va qo‘shimchalar kiritilishi mumkin.

### *Standartlar toifalari*

Oliy ta’lim standartlari quyidagi toifalarga bo‘linadi:

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan oliy ta’lim standartlari:
  - Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar;
  - Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori.
- **Oliy ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan oliy ta’lim standartlari** – ta’lim sohalarining davlat ta’lim standartlari;

Muayyan ta’lim sohasining davlat ta’lim standarti quyidagilarni o‘z ichiga olishi lozim:

- zarvaraq (titul);
- mundarija;
- muayyan ta’lim sohasi (soha tarkibi)ning umumiyl tasnifi;
  - bitiruvchilarining soha bo‘yicha tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan umumiyl talablar;
  - o‘quv reja tuzilmasi;
  - kadrlar tayyorlash sifatini baholash.

Ta’lim sohasining davlat ta’lim standarti ikkita (bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari) qismdan iborat bo‘ladi.

(O‘zR VM 10.01.2015 y. 3-son Qarori tahriridagi band) (Oldingi tahririga qarang)

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10.01.2015 y. 3-son “Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2001-yil 16-avgustdagи 343-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish haqida”gi Qarori qabul qilindi. Unda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining istiqbollari, jamiyat ehtiyoji, fan, texnika, texnologiya va madaniyat yutuqlari, kadrlar tayyorlash borasida jahon tendensiyalaridan kelib chiqib iqtisodiyot sohalarining modernizatsiyalashuv sharoitida kadrlar iste’molchilarining talablarini oliy ta’lim mazmuniga tezkor joriy etilishiga tegishli sharoitlar yaratish, oliy ta’lim davlat ta’lim standartlarini xalqaro amaliyotdagi akademik standartlar bilan uyg‘unlashtirish hamda ularning uzviyligini ta’minlash maqsadida o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritildi.

O‘quv davrining umumiy hajmi quyidagicha taqsimlanadi:

- nazariy ta’lim 63-70%;
- attestatsiya 8-10%;
- ta’til 12-16%;
- malaka amaliyoti 6-12%;
- bitiruv malakaviy ishi 2-3%.

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi** tomonidan oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida ta’lim va tarbiya jarayonlarini tartibga solishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ta’lim tizimi uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to‘g‘risida”gi 05.01.1998 y. № 5 sonli Qarori, “Uzluksiz ta’lim tizimini darsliklar va o‘quv adabiyotlari bilan ta’minlashni takomillashtirish to‘g‘risida”gi 05.01.1998 yildagi №4 sonli Qarori, “Oliy o‘quv yurtlari talabalariga stipendiyalar to‘lash tartibi va miqdorlari to‘g‘risida”gi 17.08.2001 yildagi № 344 sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 1-martdagи “Nodavlat ta’lim muassasalari faoliyatini litsenziyalash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risidagi 100-tonli Qarori, “Oliy ta’lim muassasasiga pedagoglarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi 2006-yil 10-fevraldagи 20-tonli Qarori, “Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qo‘yiladigan davlat talablarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2006-yil 16-fevraldagи 25-tonli Qarori, “Oliy ta’lim

muassasalari talabalari o‘qishini ko‘chirish, qayta tiklash va o‘qishdan chetlashtirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlash xususidagi 2010-yil 18-iyundagi 118-sonli Qarori, ”Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2012-yil 26-sentabrdagi 278-sonli Qarori, ”O‘rindoshlik asosida hamda bir necha kasbda va lavozimda ishlash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi 18.10.2012 y. 297-sonli Qarori, ”Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim hamda oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash attestatsiyadan o‘tkazish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2012-yil 28-dekabrdagi 365-sonli Qarori.

### **Oliy ta’limning me’yoriy-huquqiy asosi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining normativ hujjatlari**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.01.1998 y. 5-son ”Uzluksiz ta’lim tizimi uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to‘g‘risida”gi Qarori va **Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti** asosiy qoidalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 16-avgustdagi 343-sonli qarori bilan amalga oshiriladi.

Davlat ta’lim standartlari joriy etilishi quyidagi maqsadlar amalga oshirilishini nazarda tutadi:

- ta’limning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar, rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi kadrlar tayyorlanishini ta’minalash;

- mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish;

- ta’limning demokratiyalashuvi, insonparvarlashuvi va ijtimoiylashuvi, ta’lim oluvchilarining huquqiy va iqtisodiy bilimlari darajasini, shuningdek, ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish;

- sifatli ta’lim xizmatlari ko‘rsatish, ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxsning, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;

- kadrlar tayyorlash sifatini va ta’lim faoliyatini baholash mezonlarini va tartibini belgilash;

– ta’lim jarayoni va kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzlucksizligini ta’minlash, ta’limning barcha turlari va bosqichlarida o‘quv-tarbiya jarayonini muqobullashtirish;

– mehnat va ta’lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni ta’minlash.

### **Davlat ta’lim standartlarining vazifalari:**

– ta’lim sifatiga va kadrlar tayyorlashga, ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari nomenklaturasiga nisbatan qo‘yiladigan maqbul talablarni belgilash;

– ta’limga va uning pirovard natijalariga, ta’lim oluvchilarning bilimi va kasb malakasi darajasini vaqtி-vaqtı bilan baholash tartibi va tartibotiga, shuningdek, ta’lim faoliyati sifati ustidan nazorat qilishga nisbatan qo‘yiladigan tegishli talablarni belgilovchi me’yoriy bazani yaratish;

– xalqning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta’lim oluvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning samarali shakllari va usullarini joriy etish;

– ta’limning barcha turlari mazmunini, ta’lim va tarbiyani kelishish va ularning o‘zaro bog‘liqligi, uzlucksiz ta’lim tizimida va kadrlar tayyorlashda izchillikni ta’minlash;

– o‘quv-tarbiya va ta’lim jarayoniga, uzlucksiz ta’lim tizimining pedagogik texnologiyalariga va axborot bilan ta’minlanishiga, ta’lim darajasini nazorat qilishga, ta’lim muassasalarida ta’lim oluvchilar va ularni bitiruvchilarning malakasiga nisbatan me’yorlar va talablarni belgilash;

– ta’lim va kadrlar tayyorlash sifatiga baho berishning xolis tizimini, ta’lim muassasalarini attestatsiyadan o‘tkazish va akkreditatsiya qilishni joriy etish;

– kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta’lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlash;

– milliy standartlar talablarining ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashga nisbatan xalqaro talablarga muvofiqligini ta’minlash.

Quyidagilar oliy ta’limning normativ hujjatlari hisoblanadi:

– oliy ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan bakalavriat ta’lim yo‘nalishi va magistratura mutaxassisligining malaka talablari, o‘quv rejali va o‘quv fanlari dasturlari;

- oliy ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanadigan oliy ta’lim muassasalarining muayyan ish faoliyatini tartibga soluvchi normativ hujjatlar.

## Bakalavriat

Oliy ta’limning birinchi bosqichida o‘quv rejalarini va fanlar dasturlari umumiyligi o‘rtasi va o‘rtasi maxsus, kasb-hunar ta’limi bilan uzluksizlik va uzviylik ta’minlanishini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi va talabaning quyidagi majburiy fanlar bloklarini o‘zlashtirishini nazarda tutishi zarur:

- gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy;
- matematik va tabiiy-ilmiy;
- umumkasbiy;
- ixtisosli;
- qo‘shimcha.

Kasb faoliyati ko‘nikmalarini egallash uchun malaka amaliyotlari o‘tilishi nazarda tutilishi shart.

O‘quv rejalar majburiy o‘quv fanlari bilan bir qatorda talabalar tanlagan fanlarni ham o‘z ichiga olishi shart.

Bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejalarini va fanlar dasturini o‘zlashtirishda talabalarning o‘quv fanlariga oid bir qancha masalalar va muammolar bo‘yicha mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi lozim.

Bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uning o‘quv rejalariga muvofiq ravishda yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanishi shart.

## Magistratura

Magistratura mutaxassisliklarining o‘quv rejalarini va fanlar dasturi mazmuni oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashning birlamchi va boshlang‘ich bosqichi sifatida mutaxassislik bo‘yicha chuqur fundamental va amaliy bilimlar berishni ko‘zda tutgan holda shakllantiriladi.

Magistratura mutaxassisliklari o‘quv rejalarini va fanlar dasturlari bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarining o‘quv rejalarini va fanlar dasturlari bilan uzluksizlik va uzviylik ta’minlanishini inobatga olgan holda ishlab chiqilishi va talabalar tomonidan quyidagi majburiy bloklar o‘zlashtirilishini nazarda tutishi zarur:

- umummetodologik fanlar;

- mutaxassislik fanlari;
- ilmiy faoliyat.

O‘quv rejalar va fanlar dasturlari majburiy o‘quv fanlari bilan bir qatorda talabalar tanlagan fanlarni ham o‘z ichiga olishi lozim.

Talabalarning o‘quv rejalar va fanlar dasturlarini o‘zlashtirishida o‘quv fanlarining bir qancha masalalari va muammolari bo‘yicha mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi zarur.

Magistratura mutaxassisliklari uning o‘quv rejalariga muvofiq ravishda yakuniy davlat attestatsiyasi bilan tugallanishi shart.

## **Bakalavrning tayyorgarligiga nisbatan qo‘yiladigan umumiy malaka talablari**

### **Bakalavr:**

– dunyoqarash bilan bog‘liq tizimli bilimlarga ega bo‘lishi, gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

– Vatan tarixini bilishi, ma’naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g‘oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtayi nazarga ega bo‘lishi;

– tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

– insonning boshqa insonga, jamiyatga, atrof-muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy va ma’naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

– axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlarni qabul qila olishi;

– tegishli bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;

– yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

– sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida ilmiy tessavvur hamda e’tiqodga, o‘zini jismoniy chiniqtirish bilim va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

## **Bakalavr:**

- ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma’lumotli shaxslar egallashi lozim bo‘lgan lavozimlarda mustaqil ishlashga;
- tegishli bakalavriat ta’lim yo‘nalishi doirasida tanlangan mutaxassislik bo‘yicha magistraturada oliy ta’limni davom ettirishga;
- kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo‘shimcha kasb ta’limi olish uchun tayyorlanadi.

## ***Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bloki:***

- umumiyo‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi negizida olingan bilimlarni to‘ldirishi va rivojlantirishi; milliy istiqlol g‘oyasi va demokratiya, milliy va umuminsoniy qadriyatlar negizida ilmiy va gumanitar dunyoqarashni, yuksak ma’naviyat va demokratik madaniyatni, iqtisodiy, huquqiy va ijodiy tafakkurni, e’tiqod va ijtimoiy-siyosiy faollikni shakllantirishi;
- ta’limning tarix, falsafa, xalq an’analari, urf-odatlari bilan uzviy birligini, O‘zbekiston xalqlari madaniyatini asrash va boyitishni, boshqa xalqlar tarixi va madaniyatiga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni ta’minlashi;
- insonparvarlik, vatanparvarlik va baynalminalchilik ruhini rivojlantirishi;
- ta’lim va tarbiya jarayonining mustaqil fikrlaydigan, qarorlar qabul qilishga qodir, har tomonlama rivojlangan, barkamol shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilganligini ta’minlashi lozim.

## ***Matematik va tabiiy-ilmiy fanlar bloki:***

- umumiyo‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi bilan uzviylik hamda uzlusizlikni inobatga olgan holda bilishning matematik usullari, informatika hamda axborot to‘plash, ularni qayta ishlash va uzatish usullarining jamiyatdagi o‘rnini va ahamiyati haqida oliy darajadagi tasavvurlarni shakllantirishi;
- koinotning tabiiy obyekt ekanligi va uning evolyutsiyasi; tabiiy fanlarning o‘zaro fundamental birligi; zamonaviy tabiiy hodisalarini tadqiq etish konsepsiysi; tabiatdan oqilona foydalanish va inson faoliyatining ekologik tamoyillari; tabiatga putur yetkazmaydigan texnologiyalar yaratish istiqbollari haqidagi ilmiy tasavvurlarni shakllantirishi;
- muayyan bilim sohasi uchun zarur bo‘lgan fundamental fanlarni chuqr o‘rganishning ilmiy va nazariy asoslarini ta’minlashi lozim.

### ***Umumkasbiy fanlar bloki:***

- matematik va tabiiy-ilmiy fanlar bilan maxsus fanlar o‘rtasida ilmiy va nazariy bog‘liqlikni ta’minlashi;
- maxsus fanlarni o‘rganish va chuqur egallash uchun zarur bo‘lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishi;
- modelli tasavvurlarni tajriba usullari va olingan natijalarni qayta ishlash yo‘riqlariga oid bilimlarni amalda qo‘llash ko‘nikmalarini ta’minlashi lozim.

### ***Maxsus fanlar bloki:***

- bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;
- tegishli bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha maxsus bilimlarni, kasb faoliyati bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishi;
- talabaning muayyan magistratura mutaxassisligi bo‘yicha kelgusida ta’limni davom ettirishga ongli munosabatda bo‘lishiga ko‘maklashishi lozim.

### ***Qo‘srimcha fanlar bloki***

- talabalarning bakalavriat ta’lim fanlari bo‘yicha qo‘srimcha ravishda chuqur bilim olishga bo‘lgan ehtiyojini qondirishi;
- ta’lim sifatiga qo‘yilayotgan talablar va mehnat bozori konyunkturasi tez o‘zgarayotgan sharoitda bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv rejalar va fanlar dasturlarining safarbarligi va moslashuvchan bo‘lishini ta’minlashi lozim.

**O‘quv dasturi me’yoriy hujjat sifatida Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim faoliyatining asosi bo‘lib hisoblanadi.** Unda o‘quv fanlari bo‘yicha talabalar tomonidan o‘zlashtiriladigan asosiy bilim va zaruriy ko‘nikmalar nazarda tutiladi.

O‘quv dasturlari ikki turga bo‘linadi:

- Namunaviy o‘quv dastur
- Ishchi o‘quv dastur.

Namunaviy o‘quv dasturi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining buyrug‘i bilan tayanch etib belgilangan oliy ta’lim muassasalari kafedralalarida tegishli fan sohasidagi yetuk olimlar, mutaxassislar va tajribali professor-o‘qituvchilardan tashkil topgan ijodiy guruh tomonidan tuziladi.

Namunaviy o‘quv dasturi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Kirish

- Asosiy qism
- Amaliy mashg‘ulot mavzulari
- Seminar mavzulari
- Mustaqil ta’lim mavzulari
- Tavsiya etiladigan darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar ro‘yxati.

Davlat ta’lim standartlari talablaridan kelib chiqib, ma’lum fanlardan chizma-hisob, kurs ishlari, loyihalari va ularning mavzu va yo‘nalishlari ham keltirilishi mumkin.

Namunaviy o‘quv dasturi tasdiqlangan o‘quv rejalariga kiritilgan muayyan fan uchun ajratilgan eng ko‘p vaqt byudjetiga moslab, har 20-soatlik material uchun taxminan bir bet hajmda tuziladi.

Dastur fan, texnika, texnologiyaning so‘nggi yutuqlari, oliv ta’lim rivojlanishining jahon tendensiyasini hisobga olish Respublikada joriy etilgan uzluksiz ta’lim tizimining ta’lim turlari o‘rtasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta’minlashi, ayniqsa, umumiyligi o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi va oliv ta’limda uzluksiz o‘qitiladigan fanlarda mavzularning mantiqiy ketma-ketligi, oddiydan murakkablikka, xususiydan umumiylikka o‘tib borish tamoyillariga amal qilishi shart. Dasturda ta’lim oluvchilarning mustaqil bilim izlash va uni o‘zlashtirish, o‘qitish jarayonini interaktiv pedagogika asosida tashkil etishga, mavzularning bir xil talqinda takrorlanmasligiga e’tibor berilishi zarur.

Namunaviy o‘quv dasturi tayanch oliv ta’lim muassasasining tegishli kafedrasi, fakultet yoki OTM uslubiy (ilmiy) kengashida muhokama qilinadi.

Namunaviy o‘quv dasturiga kamida 2 ta tashqi taqriz olinadi.

Ijtimoiy, gumanitar va iqtisodiy fanlar bo‘yicha tuzilgan namunaviy o‘quv dasturlari maxsus metodologik komissiyasiga muhokama qilish uchun topshiriladi.

Barcha fanlar bo‘yicha tuzilgan namunaviy o‘quv dasturlari oliv o‘quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlash-tiruvchi Kengash ekspertizasidan o‘tishi shart va uning tavsiyasi bilan vazirlik tomonidan ro‘yxatga olinadi va amalga kiritiladi.

Namunaviy o‘quv dasturlari vazirlikning tegishli boshqarmasi tomonidan tasdiqqa tavsiya etiladi va ro‘yxatga olinadi. Bu haqda namunaviy o‘quv dasturning bosh varog‘iga belgi qo‘yiladi.

Namunaviy dasturning etalon nusxasi vazirlikda saqlanadi. Namunaviy o‘quv dasturi tasdiqlangan va ro‘yxatga olingan kundan boshlab amalga kiritiladi.

Namunaviy dastur davlat ta’lim standartlariga o‘zgartirishlar kiritilgan taqdirda yoki o‘zga hollarda 5 yilda bir marta qayta ishlab chiqilishi va ushbu tartibga asosan qayta ekspertiza va tasdiqdan o‘tishi zarur.

Namunaviy o‘quv dasturlarini ko‘paytirish va tarqatish huquqi tayanch oliy ta’lim muassasalari va OO‘MTV huzuridagi rivojlantirish markaziga beriladi. Nashr etish yoki ko‘paytirish bilan bog‘liq xarajatlarni inobatga olib dasturga narx belgilanishi mumkin.

Ishchi o‘quv dasturi tegishli ta’lim standartlarini konkretlashtiradi, o‘quv jarayonini uslubiy, informatsion va texnik jihatdan ta’minlanishini nazarda tutadi. OTMlarda talabalarni tayyorlash va o‘qitish xususiyatlarini aks ettiradi.

Ishchi o‘quv dasturi oliy ta’lim muassasasi ta’lim dasturini asosiy qismi sifatida talabalar tomonidan mahalliy shart-sharoitlarni, xususiyatlarni hisobga olgan holda davlat ta’lim standartiga asosan majburiy minimum talablarning olinishini kafolatlaydi.

Namunaviy o‘quv dasturi asosida tuzilgan ishchi o‘quv dasturida aniq mavzular, ularga ajratilgan soatlar, mavzular bo‘yicha qo‘llaniluvchi didaktik va texnik vositalar, mavzular va bo‘limlar bo‘yicha bilimni nazorat qilish turlari hamda tegishli uslubiy tavsiyalar aniq ko‘rsatiladi, shuning uchun uning hajmi cheklanmaydi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Topildiev V.R. Ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning me’yoriy-huquqiy asoslari.-T.: O‘zMU nashriyoti, 2015.
2. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015 y., 33-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015 y., 42-son.
4. Oliy ta’lim. Me’yoriy-huquqiy hujjatlar to‘plami(II): B.YU.Xodiev tahriri ostida shakllantirildi; Tuzuvchilar: I.Majidov, B.Raximov, R.Musurmonov, S.Buzrukxonov, B.Rajabov, R.Rajabboev, H.Nazarov, SH.Avezov, B.Qodirov.-T.: “Tafakkur-Buston”, 2013/ 576 b.
5. Oliy ta’lim muassasalarida bakalavr talabalarning bitiruv malakaviy ishini bajarish va rasmiylashtirishga qo‘yiladigan talablar. 9.06.2010 yil, № 225 buyruq.
6. “Ochiq leksiyalarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida” gi Nizom №79 - sonli buyruq. 2004 yil, 26 mart.
7. “Vaqt me’yorlari to‘g‘risida”gi 2004 yil 19 apreldagi №105 buyruq.
8. Oliy ta’lim muassasalari fakultetlari to‘g‘risidagi Nizom. 3.12.2011 yil. № 487 buyruq.
9. Jalolov A. Mustaqillik mas’uliyati. –T.: O‘zbekiston, 1996.[4]
11. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug‘at. - T.: Sharq, 1998.[5]
12. Azizzxo‘jaev A. Davlatchilik va ma’naviyat. - T.: Sharq, 1997.[6]
13. Primova F. Milliylik va umuminsoniylik. – T.: 1998.[7]
14. O‘rmonov M. Muqaddas Avesto. Xalq so‘zi, 1998.[8]
15. Amir Temur – buyuk davlat arbobi. Toshkent moliya instituti (ilmiy-nazariy konferensiya materiallari), 1995.[9]
16. Qayumov Aziz. Ahmad Farg‘oniy. – T.: Cho‘lpon, 1998.[11]
17. Qosimov B. Vatan va millat muqaddasdir. – Toshkent: 1994.[12]
18. Jumaboev Y. Inson hayot mazmuni. Fan va turmush, 1996, [13]
19. Zaynudinov Z. Farzand burchi, Toshkent oqshomi, 1996, 19. Fevral [14].
20. Zunnun SH. Donishmandlar odob-axloq to‘g‘risida. –T.: O‘qituvchi, 1996.[15]

## Mundarija

Kirish.....	3
Ma’naviyatda milliylik va umuminsoniylik. Milliy-ma’naviy qadriyatlar tushunchasi.....	4
Ma’naviyatda milliylik va umuminsoniylik.....	8
Ma’naviyatning tarixiy, nazariy-ilmiy va amaliy zaminlari. Qadimgi O’rta Osiyo xalqlari ma’naviyatining shakllanish jarayonlari.....	11
O’rta Osiyo falsafiy tafakkurida ma’naviyat va ma’rifat masalalari.....	15
Amir Temur va temuriylar sulolasi davrida ma’naviyat.....	16
Jadidchilar ma’rifatparvarlik harakatining xalq ma’naviyatini ko’tarishda tutgan o’rni.....	18
Mustamlakachilik va qaramlik sharoitida ma’naviyat.....	19
Yetakchi axloqiy qadriyatlar.....	21
Ma’naviyat tushunchasi va uning rivojlanish xususiyatlari.....	23
Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish yo’llari.....	24
Oliy ta’limning me’yoriy-huquqiy asosi sifatida qonun hujjatlari.....	26
Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo’nalishlari.....	42
Ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning qonunosti normativ -huquqiy hujjatlari.....	44
Oliy ta’limning me’yoriy-huquqiy asosi sifatida O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining normativ hujjatlari.....	55
Bakalavrning tayyorgarligiga nisbatan qo’yiladigan umumiy malaka talablari.....	58
Foydalanilgan adabiyotlar.....	61

Muharrir: Sidikova K.

Musahhih: Miryusupova Z.